

Marifat

1931-yildan chiqa boshlagan • e-mail: info@marifat.uz • 2021-yil 24-noyabr, chorshanba № 48 [9373]

Xalq ziyolilari gazetasi

O'qituvchi
nimani
o'ylaydi?



Buxoroga to'yga bordim. Achinarlisi, qishloqda deyarli sharoit yo'q. Chiroq ertalab o'chsa, tushdan so'ng yonarkan. Kechki payt, ovqat mahali yana o'charkan. Bu sharoitda eng qiynaladigan o'qituvchilar bo'lsa kerak. Chiroq o'z vaqtida bo'lmasa, kundalik.com.ni qanday yuritish mumkin? Ko'rmaguncha ishonmas ekansiz. O'qituvchiga yuklamani orttiraverguncha, og'irini yengil qilish haqida o'ylash kerak. Mutasaddilar ham qishloqlarga borib, haqiqiy hayotni ko'rsa, balki ko'zlari ochilar.

Sanobar BERDIYEVA

Ona tilimizni o'rganishda grammatikabozlik qanchalik zararli bo'lsa, aksilgrammatikabozlik shunchalik zararli, nazariyda. Grammatika — tilning matematikasi. U o'quvchilarga tilshunos bo'lishlari uchun emas, punktual bo'lishlari, tahliliy fikr yuritish bilishlari va tilning nozik tomonlarini sezishlari uchun o'rgatiladi. Balki, o'zbek tilini o'rganayotgan boshqa millat vakillari uchun grammatika kerak emasdir. Ammo o'zbek o'quvchilari, talabalar uchun uni o'rganish zarur deb hisoblayman..

Xudoyberdi KOMILOV

Daraxt ko'chatlarini nima uchun ekyapmiz? Yashil hudud yaratishdan maqsad nima? Biz o'tqazgan ko'chatlar daraxt bo'ladimi yoki faqat bu suratlarda qoladimi? Tunov kuni ko'chat ekib, rosa rasmga tushdik. Oradan 2 kun o'tgach, hokim keladigan bo'ldi. O'tqazilgan ko'chatlar sug'urib olindi va ekishga, rasmga tushishga tayyor-garlik ko'rildi. O'quvchilar oldida ham mulzam bo'ldik.

MUALLIMA

– “2020–2022 yillarda umumiy o'rtta ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitish tizimi-ni tubdan takomillashtirish, o'zbek tili bo'yicha mashg'ulot va dars soatlarini ko'paytirish” vazifasi qo'yilgan. Lekin Xalq ta'limi vazirligi 2020–2021-o'quv yilidan ona tili darslarini aksincha qisqartirgan;

– mayli, soatlar miqdori oshirilmasin (bu, aslida, topshiriqning qo'pol buzilishi), lekin uning qisqartirilishi qaysi mantiqqa to'g'ri kelishi u yuqorda tursin, tilimizga xiyonat emasmi? Qolaversa, bu hukumat qaror-lariga zid-ku!

Aksariyat rahbarlarimiz orasida “o'zbek tili nimaga kerak?” degan savol ko'p takrorlanadi. Agar “nimaga kerak?” deyil-maganda, boshqa dav-latlardagi kabi ta'lim rus tilida olib boriladi-gan yo'nalishlarda ham davlat tilidan kirish imtihonlari qo'yilgan bo'lardi;

– yaqin o'timishda barcha bosqichlarda (maktabgacha ta'lim davri bundan mustas-no) o'zga tili guruhlar uchun o'zbek tilidan davlat ates-tatsiyasi joriy qilingan edi. Asossiz ravishda u olib tashlandi. Bizningcha, bu attestatsiyani tiklash vaqti yetdi.

ONA TILIMIZ NUFUZI OSHMOQDA(MI?)...

3-bet



O'zbek tili va madaniyatini jahonga tanitayotgan ayol

6-7 betlar



O'zbek tili haqida aql bovar qilmas dalil

8-9 betlar



Gapirishni ham o'rgatingizlar!

10-bet

Ta'kid

Nega o'z tilimizda faxrlanib gapirmaymiz?

Dugonalarim orasida dunyoqarashi keng, yaxshi fazilatlarga boy bir qiz bor edi. Uning unashtirilganini eshitib rosa quvongandim. Ammo yaqinda to'yi qoldirilgani haqida xabar oldim.

Ma'lum bo'lishicha, dugonam bolajak umr yo'ldoshi bilan rus tili kursiga borayotgan ekan. Yigit qachonki shu tilda bemalol gaplasha olishsa, to'y bo'lishini aytibdi. Sababi, bolalarining tili hatto o'zbekcha chiqishini xohlamas ekan. Nima emish, bolalar rus tilini bilsa, kelajakda boshqa tillarni o'rganishi oson kecharkan. Mantiqsizlikni qarang. Mabodo shunaqa bo'lsa, oiladagi muhitni tasavvur qilavering. Dugonamning to'yni to'xtatib to'g'ri qilganidan quvondim. Achinarlisi, jamiyatimizda yevropacha ta'lim-tarbiya tarafdorlari ko'payib bormoqda.

Sizga boshqa millat kishisi o'z ona tilida gapirsa, xijolat bo'lasiz. Xalqingizga hurmatsizlik qilayotganidan emas, u tili bilmaganingizdan. Tasavvur qiling, Amerika yoki Rossiya mayli, tilimiz bir-biriga yaqin Turkiyaga bordingiz. U yerda o'zbek tilida g'ururlanib gapiryapsiz, hamrohlangiz ingliz, rus yoki turk millatiga mansub.

Ular o'zbek tilini bilmaganidan xijolatda! Ko'z oldingizga keltira oldingizmi? Bordi-yu, shunday bo'lsa siz o'zbek tilida gapirishni miyangizda tahlil qila olmaysiz, sababi, o'z yurtida boshqa millat kishisiga uning tilida gapirgan xalq boshqa yurtida o'z tilida gapirishiga aql bovar qilmaydi. Nega shunday, nega buyuk tarixi, adabiyoti misli xazina tilimizda faxrlanib gapira olmaymiz? Axir qachonlardir Navoiy fors tilida emas, bizning tilda ijod qilishni ustun qo'ygan-ku, Bobur qo'msagan til-ku bu!

Avvalo, milliy g'ururni o'stirishimiz, til tashviqotlarini jadal tashkillashtirishimiz kerak. Bolalarimizga sening tiling o'zbek tili, sen shu tilda jamiyat bilan aloqada bo'lasan, hech qachon uyalib qolmayсан, boshqa tillarni qiziqishingga qarab o'rganaver deb ikkilanmay ayta olaylik.

Muhayyo HABIBULLAYEVA,
O'ZJOKU talabasi



Sinab ko'ring

Bugungi yoshlarning katta muammosi so'z boyligining kamligidir. Bu muammoga ular maktabni bitirib ketganidan keyin ham ko'p duch keladi. Ozgina so'zamlilik yoki adabiy tilda so'zlash yoshlar orasida "kitobiy" yoki notabiiydek tuyuladi. Aslida o'quvchilarning so'z boyligi qanchalik ko'p bo'lsa, shuncha yaxshi. O'z ona tilida ravon gapirish va so'zlarni o'rta qo'llay bilish insonga ko'rk bag'ishlaydi.

So'z boyligi insonga ko'rk bag'ishlaydi

Shuning uchun adabiyot darslarida har bir asar mutolaasidan so'ng o'quvchilarga o'qigan asari yuzasidan insho yozdiraman. Insho bolaning fikrlash doirasini o'stiradi. So'z boyligini oshiradi. Buning uchun ona tili fanida boshqotirmali, muhkamali topshiriqlar, grammatik o'yinlarni qo'llash yaxshi samara beradi.

Ona tili darslarida har xil mavzularda matn tuzdirish o'quvchilarning yozma va og'zaki nutqini o'stiradi. Masalan: doskaga k, a, t, q, j harflari yoziladi. Shu harflarni qatnashtirib 5 ta so'z tuzish, bu harflar har bir so'zning uchinchi tovushi bo'lishi kerak. O'quvchilar misol tariqasida quyidagi so'zlarni yozishlari mumkin:

1. Maktab. 2. Ota. 3. Katta. 4. Majlis. 5. Haqiqat.

Endi shu so'zlar ishtirokida matn tuzish vazifasi topshiriladi. Bunda ham har bir gapning uchinchi shu so'z bo'lishi lozim.

Men o'qiydigan maktabga kecha ko'pchilik keldi. Maktab ma'muriyati otalar yig'ilishini o'tkazdi. Yig'ilishda o'tirgan katta yoshli insonlar ta'lim-tarbiyada otaning o'rni xususida ko'p gapirishdi. Mazmunli kechgan majlis barcha otalarni mas'uliyatli

bo'lishga undadi. Bunday yig'ilishlar haqiqatan bugungu kun uchun juda ham zarur ekan.

Bu metodni darslarimda ko'p qo'llayman. Istalgan harfga so'z topa olish, istalgan so'zlardan matn tuza olish ko'nikmasini o'quvchilar qanchalik yaxshi udalasa, bilinki, ularning so'z boyligi oshib borayotgan bo'ladi.

Shuningdek, o'quvchilar orasida so'z boyligini oshirish uchun darsdan tashqari badiiy kitob mutolaasini tashkil etish, o'qilgan badiiy asarlar asosida sahna ko'rinishlari tayyorlash maqsadga muvofiq. O'quvchi qizlarim Kumush, Ra'no, Xonzodabegim, Nodirabegim, Gul obrazlaridagi monologlarni yoddan bilishadi. Har safar bu obrazni ijro etish uchun qizlar o'zlarini sinab ko'rishga va eng yaxshi ijrochi deb topilishga harakat qilishadi. Shuningdek, o'g'il bolalar Navoiy, Bobur, Otabek, Anvar kabi obrazlarda o'zlarini sinab ko'rishadi. Bu o'quvchilarning so'z boyligini va nutqiy ravonligini oshirishga xizmat qiladi.

Turg'unoy HAKIMOVA,
Yashnobod tumanidagi
307-maktabning ona tili va
adabiyot o'qituvchisi

Sharh

Yangi qaror

normativ-huquqiy hujjatlar takomillashuvida muhim qadam

Hukumat qarori bilan ilk marta shu yilning 28-oktabrida "Normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarini lingvistik ekspertizadan o'tkazish tartibi to'g'risida"gi nizom tasdiqlandi. Unga ko'ra, normativ-huquqiy hujjatlar loyihaları vazirlik, idoralar bilan kelishishdan oldin lingvistik ekspertizadan o'tkaziladigan bo'ldi.

Ushbu nizomda lingvistik ekspertiza quyidagi talablar asosida o'tkazilishi belgilandi:

- **Jumlalarning soddaligi, qisqaligi va ta'riflarning aniqligi.** Hozirgi kungacha qabul qilingan va qabul qilinayotgan deyarli barcha normativ-huquqiy hujjatlarda, asosan, nihoyatda murakkab jumalardan va birikmalardan foydalanilgan bo'lib, bu uni tushunishni og'irlashtirar edi. Ushbu talab normativ-huquqiy hujjatlarning xalqqa tushunarli bo'lishiga imkon yaratadi, bu esa uning ijrosida muhim ahamiyat kasb etadi. Tarixda ba'zi mamlakatlarda hukmdorlar huquqshunoslardan qonunlarni o'ta mavhum va mujmal tarzda qabul qilishlarini talab qilishgan. Buning sababi, ushbu qonunni xalqning aksariyat qismi tushunolmaydi va o'zining qanday huquqlarga ega ekanini angolmaydi.

- **Imlo, uslubiy, grammatik va orfo-grafik qoidalarga mosligi.** Ko'plab normativ-huquqiy hujjatlarda ushbu qoidaning qo'pol tarzda buzilganligiga guvoh bo'lishimiz mumkin, ayniqsa, uslubiy xatolar ko'plab uchraydi. Bunday xatolar ushbu hujjatda ko'zda tutilgan mazmunning o'zgarishiga, xalqning esa, uni noto'g'ri tushunishiga va talqin qilishiga olib keladi. Ushbu holatning yuzaga kelishiga sabab hujjatning loyihasini tayyorlagan yuristning yetarli darajada yuqorida aytib o'tilgan qoidalarni bilmasligidir.

- **Yangi atamalar, shuningdek, soha atamalarining to'g'ri qo'llanilganligi.** Ushbu talabda normativ-huquqiy hujjatlar loyihalarida yuridik atamalarining to'g'ri qo'llanilishini tekshirish nazarda tutilgan. Ushbu talabga rioya etilishida Oliy Majlis Qonunchilik palatasi devoni lingvistik ekspertiza va tahririyat bo'limi mudiri Saidja Jo'rayeva tomonidan ilgari surilgan taklif, ya'ni har bir yuridik

atamaning qaysi qonunda qanday ma'noda ishlatilganligi keltirilgan qo'llanma ishlab chiqilishi kerak. Shunda ushbu atamalarining mohiyatini anglash ham ancha osonlashadi.

- **So'z birikmalarining o'zaro to'g'ri bog'langanligi.** Bu talab ham normativ-huquqiy hujjatning oson tushunilishida yordam beradigan muhim omildir.

- **Bayonning tizimligi va ifoda ketma-ketligi.** Ba'zi normativ-huquqiy hujjatlarda mantiqiy izchillik buzilgan holatlar uchrashiga guvoh bo'lamiz. Buning sababi esa, bizda ularni ishlab chiqishning aniq bir tizimi belgilanmaganidir. Agar normativ-huquqiy hujjatlarning tizimlashtirilishi aniq tartibga solinsa, uning mohiyatini anglash ham osonlashadi.

Yuqorida ko'zda tutilgan talablarning ijrosini ta'minlash va targ'ib qilish uchun Toshkent davlat yuridik universiteti "O'zbek tili va adabiyoti" kafedrasida o'qituvchi va professorlariga O'zbekiston Respublikasi Qonunchilik palatasi devoni lingvistik ekspertiza va tahririyat bo'limida amaliyot o'tash imkoniyati berildi. Misol uchun, yaqindagina Adliya vazirligi tashabbusi bilan O'zbekiston Respublikasi Kodekslariga sharhlar yozish ishlari boshlangan edi. Mana, ushbu voqeadan so'ng ko'p vaqt o'tmasdan, normativ-huquqiy hujjatlarning lingvistik ekspertizadan o'tkazilishi tartibi ham belgilandi. Ushbu yangiliklar, albatta, kelajakda normativ-huquqiy hujjatlarning yanada takomillashuvi, jamiyat va xalq manfaatlarini, shuningdek, xalqning huquqiy bilimlari oshishi yo'lida munosib xizmat qilishiga ishonamiz.

Nargiza SHARIPOVA,
Toshkent davlat yuridik
universiteti
2-bosqich talabasi

Ona tilimiz nufuzi oshmoqda(mi?)...

Davlatimiz rahbarining 2019-yil 4-oktabrdagi "O'zbekiston Respublikasining "Davlat tili haqida"gi qonuni qabul qilinganining 30 yilligini keng nishonlash to'g'risida"gi qarori ona tilimiz rivojida dastlabki buyuk qadam bo'ldi, deb aytish mumkin. Mamlakat bo'ylab bu bayramni nishonlashga jiddiy tayyorgarlik ko'rildi, poytaxtdagi tantanalarda mamlakat rahbari ishtirok etib, o'zbek tilini to'laqonli davlat tili maqomiga ko'tarish, yillar davomida yig'ilib qolgan muammolar, ularning yechimi xususida fikrlarini aytib o'tdi. Shundan so'ng tilimiz takomiliga bag'ishlangan 2 ta Prezident farmoni, 2 ta qarori, Vazirlar Mahkamasining 10 dan ortiq qarorlari e'lon qilindi, hukumat tarkibida alohida departament tashkil etildi. Ayniqsa, Prezidentimizning 2020-yil 20-oktabrdagi "Mamlakatimizda o'zbek tilini yanada rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi farmoni asosida "2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasi" hamda "2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020–2022-yillarda amalga oshirish dasturi" tasdiqlandi. Qisqa vaqt ichida amalga oshirilishi lozim bo'lgan dasturda aniq chora-tadbirlar ishlab chiqilib, unga mas'ul bo'lgan vazirlik, idoralar belgilab qo'yildi.

Hozirgacha mazkur dastur ijrosi bo'yicha juda katta ishlar amalga oshirildi, mamlakat hayotining barcha jabhalarida davlat tiliga bo'lgan munosabat tubdan o'zgardi. Lekin hukumat miqyosida yuksak e'tibor bo'lishiga qaramasdan, quyi pog'onalarida tilimizga "o'zgacha ko'z" bilan qarash hanuzgacha davom etayotgani kishini tashvishga solmoqda.

Ma'lumki, davlat tilining o'rni va nufuzini oshirish ta'limdan boshlanadi. Bu borada respublika rahbariyati tomonidan aniq metodologik ko'rsatmalar berilgan, hujjatlar qabul qilingan. Quyida mazkur hujjatlardagi vazifalarining amalga bajarilishiga to'xtalamiz.

"2020–2030-yillarda o'zbek tilini rivojlantirish va til siyosatini takomillashtirish konsepsiyasini 2020–2022-yillarda amalga oshirish dasturi"ning 6-bandida "2020–2022-yillarda umumiy o'rta ta'lim muassasalarida o'zbek tilini o'qitish tizimini tubdan takomillashtirish, o'zbek tili bo'yicha mashg'ulot va dars soatlari ko'paytirish" vazifasi qo'yilgan. Lekin Xalq ta'limi vazirligi 2020–2021-o'quv yilidan ona tili darslarini aksincha qisqartirgan. Bu masala bo'yicha soha mutaxassislari, deputatlar, maktab o'qituvchilari ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlarda e'tiroz bildirishdi. Vazirlik go'yoki bu vazifani o'zlaricha talqin qilganday bo'ldi, oqibatda hech narsa o'zgarmadi, keyinchalik hamma si unutildi, lekin faqat ingliz tilining soatlari ko'paytirilib, ona tiliga e'tibor berilmadi. Shuni ajablanarliki, mayli, soatlar miqdori oshirilmasin (bu, aslida, topshiriqning qo'pol buzilishi), lekin uning qisqartirilishi qaysi mantiqqa to'g'ri kelishi u yoqda tursin, tilimizga xiyonat emasmi? Qolaversa, bu hukumat qarorlariga zid-ku! Ta'limda azaldan shunday yomon odat hamon saqlanganki, o'quv rejasida soat qisqartirilishi kerak bo'lsa, darrov ona tili hisobiga amalga oshiriladi.

Bu o'quv yilida tilimizga "o'zgacha hurmat ko'rsatish" navbati akademik litseylarga yetib kelibdi. Bu fikrni qo'limizdagi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tomonidan 2021-yil 1-martda tasdiqlangan "Xorijiy tillar", "Ijtimoiy-gumanitar fanlar-2" hamda "Aniq fanlar-2" ta'lim yo'nalishlari namunaviy o'quv rejalari tasdiqlab turibdi.

Har uchala o'quv reja ona tiliga bir xil – 144 soat (72 soat adabiyotga) ajratilgan, xorijiy tilga esa – 216 soat! Endi haqli bir savol tug'iladi: umumiy o'rta ta'lim maktablarida ham, akademik litseylarda ham ingliz tili bo'yicha sifatli mutaxassislar yetarlimi yoki yoshlarimiz ta'lim muassasasida olgan bilim bilan "IELTS" sertifikatini o'layotimi? Menimcha, yo'q, sizning javobingiz ham shunday. Ularning bari o'quv markazlari yoki xususiy repetitorlarda olgan bilimlari orqali bu natijaga erishyapti. Inkori qilasizmi? Xo'p, xorijiy tili uchun shuncha soat ajratilibdi, endi e'tiboringizni boshqa fanga qarataman.

Har uchala ta'lim yo'nalishida ham matematika faniga 234 soat (algebra – 144 soat, geometriya – 90 soat) ajratilgan. "Xorijiy tillar", "Ijtimoiy-gumanitar" ta'lim yo'nalishlariga o'qishga kirayotgan yoshlarning aksariyati matematikaga qiziqmagani uchun mazkur yo'nalishlarni tanlashgan, yuqoridagi 2 yo'nalish uchun matematika soatlari kamroq bo'lishi kerak emasmi? Hatto gumanitar yo'nalishlarda ham soatlar miqdori ona tilidan yuqori bo'lsa! "Aniq fanlar-2" yo'nalishi uchun matematika soatlari ko'p bo'lishi tushunarli. Adabiyot fanining faqat uchinchi va to'rtinchi semestrda o'qitilishini qanday izohlash mumkin?!

Endi bundan ham achinarli bir holatga to'xtalamiz, buni qanday izohlashga so'z topa olmadik. Mazkur o'quv reja asosan o'zga millat vakillari uchun o'zbek tili fani 36 soatga qisqartirilgan. Ha, to'g'ri o'qidingiz, qisqartirilgan! Yuqoridagi dasturning 8-bandida "Ta'limning barcha bosqichlarida davlat tili o'qitilishi hamda o'zbek tili va adabiyotini yanada rivojlantirish borasidagi ilmiy, ilmiy-amaliy izlanishlar ko'lamini kengaytirish" vazifasi qo'yilib, mazkur vazifani "Ta'limning barcha bosqichlarida o'zbek tili o'rganilishi ko'lamini kengaytirish, davlat tiliga doir bilimlarni maktabgacha, umumiy o'rta hamda oliy va o'rta maxsus ta'lim tizimida bosqichma-bosqich shakllantirib borishga o'quv dasturlarini ishlab chiqish" orqali bajarilishi belgilab qo'yilgan. O'quv reja tuzuvchilarning mazkur dasturdan, qo'yilgan vazifalardan xabari bo'lmasa kerak, degan mulohazaga borasan.

Bundan-da achinarlisi, shu paytgacha bir guruh ikkiga bo'linib o'qiti-

layotgan bo'lsa, mazkur o'quv yilidan guruhchalarga bo'linmay o'qitilish topshirig'i berilgan! Yana ajablanasan, o'zimiz o'z tilimizni hurmat qilmay, oyoqosti qilayotgan ekanmiz, o'zga millat vakillaridan qanday munosabatni kutish mumkin? Yuqoridagi dastur ijrosi bajarilmas ekan, ya'ni soatlar miqdori ko'paytirilmas ekan, hech bo'lmasa, uni qisqartirmaslik kerakligini o'rta darajadagi rahbarlar tushunib yetishlari kerak-ku! Yaqin o'tmishda barcha bosqichlarda (maktabgacha ta'lim davri bundan mustasno) o'zga tili guruhlar uchun o'zbek tilidan davlat attestatsiyasi joriy qilingan edi. Asossiz ravishda u olib tashlandi. Bizningcha, bu attestatsiyani tiklash vaqti yetdi.

Boshqa davlatlar tajribasini o'rganaylik, iltimos, biz uchun ham foydali. Masalan, Ozarboyjon Respublikasi "Davlat tili to'g'risida"gi qonuni 5-moddasida: "Ta'lim boshqa tillarda olib boriladigan ta'lim muassasalarida ozarboyjon tilini o'qitish majburiy. O'rta maxsus va oliy ta'lim muassasalariga kirishda "ozarboyjon tili" fanidan imtihon topshiriladi", deb belgilab qo'yilgan.

Armaniston Respublikasida barcha o'rta maxsus, oliy ta'lim muassasalarida arman tilidan kirish imtihonlari va arman tili o'qitilishi majburiy qonun bilan mustahkamlangan.

Shu o'rinda ona tilimizning jonkuyarlaridan biri Zuhriddin Isomiddinovning "So'z qismati" kitobidan iqtiboslar berishni lozim topamiz:

"Ayrimlar til bayrami arafasida jo'shib-jo'shib, "O'zbek tili – bizning eng katta boyligimiz", "Ona tilimiz – faxr-u g'ururimiz", "O'zbek tili – madaniyatimiz ko'zgusi", deya "aforizmlar" ijod qila boshlashadi. Nevlay. Mening uchun ona tilim boylik emas. Negaki, kishi boyligidan ajrasa, qayg'uradi, ammo boshi omon bo'lsa, yana topadi. Til boy beriladigan bo'lsa-chi? Abadulabad alvido aytiladi. Shuning uchun hamon tilimiz bizning boyligimiz emas – borligimiz, bor-u yo'g'imiz. Va u faxr-g'urur obyekti ham emas.

Davlat tili degan tushunchani davlatning tili deb ham anglash mumkin. Ya'ni, O'zbekiston davlatining tili o'zbek tilidir. Boshqa bir til emas. Ammo davlat idoralarida to'la huquq bilan ishlatiladigan tilgina chin davlat tili bo'la oladi, boshqa gapga o'rin yo'q.

Bu dunyoda o'zbekman deb yurishdan murod boshga do'ppi kiyish-u nahorgi oshga borishdangina iborat emas, axir. Ulug' onamiz – ona tilimizni e'zozlay olmasak, boshqasidan murod nima, kimmiz biz o'zi?"

O'tgan yili "Ma'rifat" gazetasida e'lon qilingan "Davlat tili muhofazasi qanday bo'lishi kerak?" degan maqolamizda shunday fikr bildirgan ekanmiz: "Aksariyat rahbarlarimiz orasida "o'zbek tili nimaga kerak?" degan savol ko'p takrorlanadi. "Nimaga kerak?" jumlasini tufayli tilimiz mana shu ahvolga keldi, bir paytlar o'zga tili guruhlar uchun joriy qilingan Davlat attestatsiyasi olib tashlandi, o'quv soatlari qisqartirildi, hatto o'zbek tilini fan sifatida mensimaslik darajasiga olib kelindi. Agar "nimaga kerak?" deyilmaganda, boshqa davlatlardagi kabi ta'lim rus tilida olib boriladigan yo'nalishlarda ham davlat tilidan kirish imtihonlari qo'yilgan bo'lardi.

O'tgan davr mobaynida ko'p xatolarga yo'l qo'ydik, ko'p narsani yo'qotdik. Davlatimiz rahbarining tilimiz to'g'risidagi farmoni ham shuning uchun qabul qilindi. Endi ortga qarab qilgan xatolarimizni to'g'rilash, yo'qotganlarimizni qayta tiklash uchun imkoniyat tug'ildi, "nimaga kerak?" degan savoldan butunlay voz kechish payti keldi. Farmonning nomini eslang: "O'zbek tilining davlat tili sifatidagi nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish chora-tadbirlari to'g'risida", "tubdan" so'ziga alohida e'tibor bering. Demak, tilimizning nufuzi va mavqeyini tubdan oshirish uchun harakat qilishimiz kerak".

Yuqoridagi tahlillardan ko'rinib turibdiki, bizning ong-u shuurimiz hali to'laigicha o'zgargani yo'q, "nimaga kerak?" degan savoldan voz kecha olganimiz yo'q. Haqiqatan ham, kim bo'lishimizdan qat'i nazar, xoh oddiy fuqaro, xoh katta-yu kichik lavozimdagi rahbar bo'lamizmi, ona tilimizga mehr-muhabbat hissi bo'lmas ekan, "... milliy tilni yo'qotmak – millatning ruhini yo'qotmakdur (A.Avloniy)" degan purhikmat jumlaning ongimizga singdirmas ekanmiz, ona tilimiz himoyasi, nufuzi, mavqeyi masalasi qorong'iligicha qolaveradi.

Zero, Yurtboshimiz aytganidek: "Muxtasar aytganda, har birimiz davlat tiliga bo'lgan e'tiborni mustaqillikka bo'lgan e'tibor deb, davlat tiliga ehtirom va sadoqatni ona Vatanga ehtirom va sadoqat deb bilishimiz, shunday qarashni hayotimiz qoidasiga aylantirishimiz lozim.

Bu olijanob harakatni barchamiz o'zimizdan, o'z oilamiz va jamoamizdan boshlashimiz, ona tilimizga, urf-odat va qadriyatlarimizga hurmat, Vatanga mehrimizni amaliy faoliyatda namoyon etishimiz kerak".

Inomjon AZIMOV,
Alisher Navoiy nomidagi
Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universiteti huzuridagi Davlat tili
ish yuritish asoslarini o'qitish va malaka
oshirish markazi direktori, filologiya fanlari
nomzodi, dotsent

Qalbdan chiqqan so'z...



"O'ziga boqma, so'ziga boq", deydi xalqimiz. Darhaqiqat, har kimning ichki dunyosi, ma'naviy olami, fikr-mulohazasi va bilim saviyasi uning nutqida, gap-so'zida namoyon bo'ladi. Biroq so'zlash, nutq qobiliyati hammada ham birday emas. Ba'zilar nihoyatda so'zamol, gapga chechan bo'ladi, burro-burro so'zlaydi. Lekin suhbat so'ngida bu suhbatdan oz fikr olganingizni sezasiz. Demak, bu mahmadonlik, ezmalik ekan, xolos. Bu xil nutqning qiymati arzon. Boshqa birovlar esa, aksincha, o'zlarining ancha qimmatli fikr-mulohazalarini boshqalarga bayon qilishda, o'zlari tushungandek qilib tushuntirishda qiynaladi, sababi ulardagi so'z boyligi kam bo'lgani uchun til imkoniyati va vositalaridan yetarlicha foydalana olmaydilar. Bu xil kishilarning nima demoqchiligini, odatda qo'shimcha savol-javob bilan bilib olish mumkin. Yana birovlarda esa fikrni erkin, qiynalmay bayon qilish qobiliyati yetarli, nutq maromida bo'ladi-yu, lekin bu nutq so'niq, ruhsiz bo'ladi, boshqalarni jalb qilmaydi, qiziqitirmaydi. Aksariyat bunday kishilarda notiqlik mahorati, nutq madaniyati yetishmaydi. Odamlarga ta'sir qiladigan, ularda fikr uyg'otadigan, ravon, chiroyli nutqqa qanday erishish mumkin?

Bu borada "Oz-oz o'rganib dono bo'lur" kitobida shunday jumla bor: "Agar so'z qalbdan chiqib kelsa, eshituvchining qalbiga darrov ta'sir qiladi, ammo tildan sodir bo'lsa, quloqdan nariga o'tmaydi". Xuddi shunga o'xshash fikrni Nizomiy Ganjaviy ham ilgari suradi: "Qalbdan chiqqan so'z qalbga yo'l oladi".

Tilni xalq yaratadi, nutq esa shaxsiy boyluk sanaladi. Har kim o'z qobiliyati, so'z boyligi, shaxsiy fikrlash layoqatiga qarab gap tuzadi va so'zlaydi. Shuning uchun ham nutq oldiga nihoyatda ulug' bir talab qo'yiladi: "O'ynab gapirsang ham, o'ylab gapir". Zero, nutq (so'z) aqlning tarozisi, aqlning o'lchovi. Majiddiddin Xavofiy ham "Insonning boshqa jonotlardan afzalligi aqldadir. Aqlning maqsadi esa nutq va shirinsuxanlikni takomillashtirishdan iborat" ekanligini ta'kidlagan.

To'g'ri, odamiylikning muhim fazilatlaridan biri xushmuomalalik, muloyimlikdir. Bu fazilatlar bevosita tilga, so'zga bo'lgan munosabatda namoyon bo'ladi. Zero, tilning ko'rki, aql-zakovatning ziynati so'zdir. So'z muqaddas, u faqat ezigulik, yaxshilik uchun xizmat qilishi lozim. Yunon faylasuflarining ta'kidlashicha, til har bir aql sohibi fazilati xazinasi, kalitidir va har kishining bilimi, odobi uning so'zlaridan yaqqol bilini turadi.

*So'zda kerak ma'ni-yu, ma'nida zavq,
So'zlaguchida so'z uchun dard-u shavq.
Ulki bilur so'z guharin qiymatin,
So'zda topar so'zlaguchining otin.*

(Haydar Xorazmiy)

Husayn Voiz Koshifiyning "Futuvvatnomayi Sultoniy yoxud javonmardlik tariqati" asarida so'zning muqaddas bir ne'mat ekanligi, so'z inson aql-zakovatining kaliti – inson bilan so'z bamosoli et bilan tirnoq kabi zikr etiladi: "Agar so'z senikimi yoki sen so'znikimi, deb so'rasalar, aytgil: men so'zniki va so'z menikidir, chunki so'z insonlik daraxtining mevasidir, daraxtni mevan, mevani esa daraxtdan ajratib bo'lmaydi. Agar nuqsonli so'z qaysidir, deb so'rasalar, Xudo va rasulning so'ziga muvofiq kelmaydigan so'z, deb javob bergil".

Xushsuxan odam haqidagi Navoiyning fikrlariga ham e'tibor qarataylik:

"... Xushsuxan odam yumshoqlik bilan do'stona so'z aytadi: ko'ngilga tushishi mumkin bo'lgan yuz g'am uning so'zi bilan daf bo'ladi. So'zda har qanday yaxshilikka imkon topiladi, shuning uchun ham aytdilarki: nafasning joni bor..."

... Til shirinligi ko'ngilga yoqimlidir. Shirin so'z sof ko'ngillar uchun asal kabi totlidir: bolalar uchun muloyim tabiatli odam halvofurush kabi sevimlidir... Shirin so'zli mohir tabib tan xastaligiga shifodir.

*Yaxshi so'zga kim mast-u behush bo'lsa,
Sharbat ichida zaharni totli qiladi.*

Yoki:

*So'z qattig'i el ko'ngliga ozor aylar,
Yumshog'i ko'ngillarni giriftor aylar.*

Mashhur mutafakkir Sa'diy Sheroziy ham so'z xususida bir necha hikmatlar bayon etgan:

*So'z ayni savobligin bilmaguncha gapirma,
Unga soz javobligin bilmaguncha gapirma.*

Yoki:

*Nodonlardek yuzlab so'zni qilma qator,
Donolardek bir so'z degil, lek ma'nodor.*

Odam tili bilan hayvondan ustun. Ammo tildan nojoiz foydalansa, hayvondan battar!

So'zlagan vaqtimda og'zimdan beixtiyor yaramas, bo'lmag'ur so'zlar ham chiqishi mumkin. Dushman esa og'zimdan chiqqan yomon so'zlarnigina terib oladi.

Yaxshi so'z insonning hurmatiga hurmat qo'shishi, aksincha bo'lsa obro'siga putur yetkazishini ham Shayx Sa'diy Sheroziy chiroyli misralarda ifodalagan:

*Har kishining bor esa yaxshi so'zi,
O'rtirar obro'sin, albatta, o'zi.*

Xuddi shu fikrni Fariddin Attor ham ixcham, aniq qilib bayon aylagan:

*So'zni yaxshi bilmayin qilma bayon
Ki qilur so'z barcha aybingni ayon.*

Nutqda so'zni to'g'ri tanlash, zarur so'zni boshqa ma'nodagi so'zlar sirasidan ajratib olish katta ahamiyatga ega. So'zlar nutqning turiga, nutqning kimga atalganiga va maqsadiga ko'ra tanlanadi: publitsistik nutq uchun siyosiy-falsafiy ruhda o'tkir, ta'sirchan so'zlar, ilmiy nutq uchun termin xarakteridagi atama so'zlar, badiiy nutq uchun esa badiiylik bo'yog'iga ega bo'lgan, obrazlilikka xizmat qiladigan so'zlar olinadi.

Shu tariqa har bir so'zning nozik ma'no xususiyatlari nutq sharoitida, atrofida boshqa so'zlar bilan munosabatda ochildi. So'z tanlash, ularni boshqa so'zlar bilan bog'lab, qiyoslab ko'rish qunt bilan, diqqat bilan ishlashni talab qiladi. Ko'ngildagidek, puxta ishlangan nutq maqsadga to'la javob beradi, ta'sirchan va yoqimli bo'ladi.

Ba'zan palapartish, o'ylamay aytilgan birgina so'z yoki ibora butun nutqning ta'sir kuchini, salmog'ini pasaytirishi mumkin. Masalan, respublika televideniyesidan berilayotgan ko'rsatuvda muxbir mas'ul shaxslarning biridan intervyu olayotgan edi. U kishi salmoqli, vazmin so'zlab turib, korxonani kelib ko'rgan rahbar lavozimidagi bir odamning "suhbat-



larini olgani"ni aytib qoldi. "Suhbatini olmoq" iborasi "ulfatchilik"ka doir bo'lib, mas'ul rahbarning rasmiy, salobatli so'zlari orasida noo'rirligi darhol sezildi. Buni uning o'zi ham payqab o'ng'aysizlandi. Lekin adabiy nutqqa xos bo'lmagan ibora aytib bo'lingan, nutqning madaniylik maromi buzilgan edi.

Tan olish kerak, eng so'zga chechan kishilar ham ba'zan adabiy tildan kerakli so'zni topolmay qolishlari mumkin. Shunday so'zlar bor-u, lekin ular oddiy so'zlashuv nutqiga, shevalarga xos. Bunday paytlarda, agar bu so'zlar nutqning umumiy adabiy-madaniy ruhiga singishib ketsa, me'yorni buzmasa, ulardan o'rni bilan foydalanish mumkin. Masalan: "Rassomlar ishlab chiqarish mavzusiga qo'l urganlarida ko'pincha konstruksiyalar va shakllarni qalashirib tashlaydilar. Yorqin taqdirilar, o'tmish va hozirgi zamonning qahramonliklari rassomlar o'z iste'dodlarini to'la-to'kis ochishlariga imkon beruvchi badastir materiallar emasmi?" Yoki: "Korxonada ishchilarning kayfiyati zo'r. Kanar orollari ustidan o'tgan bo'ron dastlabki chamalarga ko'ra 12 kishining yostig'ini quritdi. Bu yerlarda o'nlab qishloqlar tom ma'noda yer yuzidan supurilib ketdi"...

Tilimiz boy, so'zlar ko'p, gap faqat ulardan eng keraklisini tanlash mahoratida qolgan. Mahorat o'zidan o'zi kelmaydi.

Xullas, so'z tanlashda ham, ularning grammatik munosabatlarini ifodalovchi yordamchi so'z va qo'shimchalarni tanlashda ham, gap va matn tuzishda ham me'yor, marom, mas'uliyat hissi bilan, did bilan yondashish ona tilimizni e'zozlashning, adabiy-madaniy nutq egasi bo'lishning asosiy belgisidir.

Til kishilarning fikr-mulohazalarini keng va har tomonlama yoritib berishda chegarasiz imkoniyatlarga ega. Lekin ifodalanishi lozim bo'lgan fikr-mulohazalarning yuqori darajada bo'lishi uchun tilning tasviriy vositalarini, ma'no nozikliklarini tinmay o'rganish lozim bo'ladi. Ana shundagina qisqa jumalalarda, matnlarda olam-olam fikrlarni ifodalay olish mumkin, chunki so'z har qanday fikrning libosidir.

Tilning, eng avvalo, leksikasi, ya'ni lug'at boyligi davr va zamon talablariga moslashib o'zgarib turishi, taraqqiyotdan darak berib boyib borishi va ba'zan, aksincha, davrning vaqtincha to'xtalib, to'liqlinlari susaygan paytlarda esa so'z boyligimizda ham kamayish, nutqda so'z tanlash imkoniyatlarining nisbatan torayishini ham, o'tmishga nazar salsak, kuzatish mumkin. Lekin hozirgi kun vaqtli matbuot nashrlarini varaqlasak, radioeshittirish va teleko'rsatuvlarga ahamiyat bersak, qiyinchiliklar orqada qolgani, bugungi kun hayotimiz ro'y-rost ifodalanib, namoyon bo'layotganini, shunga qarab qanday o'zgarishlar bo'layotgani-yu, so'z va nutqqa e'tibor berilayotganini ta'kidlash mumkin.


Zero, Yusuf Xos Hojib aytganidek, "Mol-dunyoni qancha termagin, u tugaydi, ozayadi. Yozilsa-chi, so'z abadiy qoladi, olamni kezadi".

Bugungi davrda ona tilimizning dunyo tillari orasida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun "Muhokamat ul-lug'atayn" singari asarlar yaratilmog'i kerak.

Iftixor

"So'zum martabasi avjdin quyi inmagay"

Hazrat Alisher Navoiy asarlari shunday bir xazinaki, ichiga kirganing sari yana yangi qirralari bo'y ko'rsataveradi. Shunday asarlaridan biri "Muhokamat ul-lug'atayn"dir. Unda shoir turkiy tilning jozibasi, ma'no tovlanishlarini eng mayda unsurlarigacha ko'rsatib beradi. Turkiy tilning forsiydan hech bir jihati bilan kam emasligini aniq dalillar bilan isbotlaydi. Asardagi ayrim o'rinlarni eslab, bugungi davrimiz bilan muqoyasa qilishga urinib ko'ramiz.



Ulug' shoir so'zni alohida sharaflaydi. Uni "ko'ngil duri" deya ta'riflaydi. Shuning barobarida so'z chiroyli nutqqa aylangandagina sharaf topishini ta'kidlaydi. Shoir bu haqda shunday yozadi: "So'z duri ham ko'ngildan so'zga chechan kishi vositasi bilan nutq sharafiga erishadi, uning qiymati ham o'zining darajasiga qarab shuhrat qozonadi va hamma yoqqa yoyiladi". Shuningdek, Hazrat Navoiy so'zdan maqsad inson ekanligi va insonlar turli tillarda so'zlashishlariga ham to'xtaladi. Har bir qavmning tili bir-biridan farq qilishini ta'kidlar ekan, dunyodagi uch til hamma tillarning asli ekanligi va mazkur uch til boshqa tillarning chiqish o'ri, ya'ni manshayi ekanini ko'rsatadi: "Bundan so'ngra uch nav' til borki, bular hamma tillarning aslidi va bu tillarning har biri o'z gapiruvchilarining so'zlashuvlariga mosdir. Bu tillarning shaxobchalari benihoyat ko'pdir. Ammo turki, forsi va hindi tillari asl tillarning chiqish o'rnidir". Shundan so'ng Navoiy o'z davrining hukmron tili bo'lgan fors tili (shoir asarida sort tili deb ataydi) va turkiy tilni qiyoslashga o'tadi. Jumladan, o'sha davrda fors tili qanday mavqega ega bo'lganligini mana bu jumalardan ham bilsak bo'ladi: "...turkning kattadan kichigigacha, xizmatkoridan begigacha sort tilidan bahramanddirlar. Shundayki, o'z tirikchiliklariga oid ahvollar ustida so'zlasha olurlar, balki ba'zilar adabiy ravishda so'zlasha olurlar. Hattoki turk shoirlari forsi tilida rangdor she'rilar va shirin hikoyalar yuzaga chiqara olurlar. Ammo sort xalqining quyi tabaqasidan yuqori tabaqalarigacha, savodsizidan bilimdonigacha hech qaysisi turk tilida so'zlasha olmaydi va so'zlaganning so'ziga ham tushunolmaydi. Agar yuzdan, balki mingdan biri bu tilni o'rganib so'zlasha boshlasa, eshitgan kishi bilib qoladi — uning sort ekanini tushunib oladi...". Hayratlanarlisi shundaki, mutafakkir shoirming ushbu fikrlari bugun ham o'z

dolzarbligini yo'qotmagan. Hozir ham o'zbekning katta qismi ruscha gapira oladi, hech bo'limganda tushuna oladi. Rusiyazonlar esa o'zbekcha bilmaydi. Bilsa ham gapirganda shoir aytmoqchi: "eshitgan kishi bilib qoladi — uning rusiyazon(o'zgartirish bizniki) ekanini tushunib oladi...".

Alisher Navoiy "Muhokamat ul-lug'atayn" asarida juda ko'plab turkiycha so'zlarning ma'nolarini keltiradi. Ayniqsa, turkiy tilning ko'p ma'noli va shakldosh so'zlariga boy ekanligiga alohida to'xtaladi. Masalan, mana bu misolni olib ko'raylik: "sog'in lafzidekki, bir ma'nisi yod qilmoqqa amrdur va biri sutluk qo'y otidur va ishq masti va majnuni va bemori muqobalasida sog'in desa, har biriga itloq qilsa bo'lur". Ya'nikim, bugungi tilimizda ham sog'in so'zi Navoiy ta'kidlagan ma'nolarda qo'llaniladi. Asarni o'qishda davom etarkannimiz, zukko shoirming o'z ona tiliga bo'lgan muhabbatini seza boramiz. Ona tilining boshqa tillardan kam emasligi, kerak bo'lsa, ulardan boy ekanligini dalillar bilan isbotlaganiga guvoh bo'lamiz. Jumladan, shoir yozadi: "Yana g'izo va har taomki, yesa bo'lur, yeguluk derlar, va sort elining ko'pi, balki barchasi yemakni ham va ichmakni ham "xo'rani" lafzi bila ado qilurlar. Va ulug' qardosh va kichik qardoshni ikkalasin "birodar" derlar va turklar ulug'ni — "og'a" va kichikni "ini" derlar, va alar ulug', kichik qiz qardoshni ham "xohar" derlar. Va bular ulug'ni — "egachi" va kichikni "singil" derlar. Va bular otaning og'ainisin "opag'a" derlar. Va onaning og'a-inisin — "tag'oyi" (derlar). Va alar hech qaysig'a ot tayin qilmaydurlar va arab tili bila "em" va "xol" derlar va ko'kaltoшни turkcha til bila derlar. Va atka va enagani ham til bila ayturlar". Bu kabi misollar asarda ko'plab keltiriladi va muallif tomonidan turkiy tilning ustun jihatlari ta'kidlab boriladi.

Alisher Navoiy o'z davrining shoirlari asosan forsiy tilda ijod qilishini, lekin o'z tillari turganda boshqa tilda ijod qilish yaxshi emasligini aytadi. Agar ikkala tilda ijod qilish qobiliyati bo'lsa, o'z ona tilida she'r yozish lozimligini uqtiradi. Umuman, Navoiyning fikricha, har bir ijodkorning burchi o'z tilini yuksaklarga ko'tarishdir. Bu haqda shoir shun-

day yozadi: "Andin so'ngrakim, turk tilining jomiyati muncha daloil bila sobit bo'ldi, kerak erdikim, bu xalq orasidin paydo bo'lg'on tab ahli salohiyat va tablarin o'z tillari turg'och, o'zga til bila zohir qilmasa erdi va ishga buyurmasalar erdi. Va agar ikkalasi til bila aytur qobiliyatlari bo'lsa, o'z tillari bila ko'prak aytisalar erdi, va yana bir til bila ozroq aytisalar erdi. Va agar mubolag'a qilsalar, ikkalasi til bila teng aytisalar erdi. Bu ihtimolg'a xud yo'l bersa bo'lmaskim, turk ulusining xushtabalar majmuyi sort tili bila nazm aytqaylar va bilkul turk tili bila aytmag'aylar, balki ko'pi ayta olmag'aylar va aytisalar ham sort turk tili bila nazm aytqondek fasih turklar qoshida o'quy va o'tkara olmag'aylar va o'qusalar har lafzlarig'a yuz ayb topilg'ay va har tarkiblarig'a yuz e'tiroz vorid bo'lg'ay". Hazrat Navoiy ona tili rivoji haqida qayg'urar ekan, o'zining ijodi boshlanishi to'g'risida ham to'xtalib o'tadi. Shoirming tan olib aytishicha, unda ham dastlab forsiy tilda she'r yozishga rag'bat kuchli bo'lgan, lekin turkiy til xazinasini o'rab turgan "ilonlar va tikanlar"dan xalos etishni o'zining burchi bilib, turkiy tilda ijod etishni maqsad qilgan. Shu bois forsiy tilda ijod o'sha davr uchun qulay bo'lgani holda, o'z xalqining, tilining kelajagini o'ylab va ona tilining boshqa tillardan kam emasligini isbotlash uchun ham turkiy tilda ijod qildi. Umuman olganda, "Muhokamat ul-lug'atayn" asari bizga tilga bo'lgan hurmatni, uning ravnaqi uchun kurashni o'rgatadi. Ushbu asar orqali turkiy tilimizning boyligini bilib olamiz. Asarda keltirilgan fikrlar orqali bugun uchun ham xulosalar chiqaramiz. Navoiy ta'kidlaganidek, bugun ham tilimizga bepisandlik bilan qarovchi "o'zimiznikilar" uchraydi. Hozir ham o'z tili qolib boshqa tilda so'zlashni obro' biladiganlar topiladi. Shiddat bilan rivojlanayotgan bugungi davrda ona tilimizning dunyo tillari orasida o'z o'rniga ega bo'lishi uchun "Muhokamat ul-lug'atayn" singari asarlar yaratilmog'i kerak. Buning uchun fidoyi ziyolilarimiz birlashmog'i, tilimiz kelajagi uchun qo'lni qo'lga bermoqliklari lozim bo'ladi. Shundagina biz tilimiz haqida Hazrat Navoiy orzu qilgan: "...umidim uldur va xayolimga andoq kelurkim, so'zum martabasi avjdin quyi inmagay va bu tartibim kavkabasi a'lo darajadin o'zga yerni beganmagay" deya baralla ayta olamiz.

Zohid SHAKAROV,
Davlat test markazi direktorining
ma'naviy-ma'rifiy ishlar
samaradorligini oshirish,
davlat tili haqidagi qonun
hujjatlariga rioya etilishini ta'minlash
bo'yicha maslahatchisi



Qadring baland bo'lsin, ona tilim!

*Har millatni tanitguvchi zaboni bor,
Ona yeri, osmoni va oshyoni bor,
Bobolardan meros bo'lgan dostoni bor,
Ma'rifatning quchog'iga eltar yo'ling,
Qadring baland bo'lsin doim, ona tilim!*

*Navoiyning baytlarida dunyo kezding,
Ko'ragoniy bo'lib bedor jadval tuzding,
Olislarda Mirzo Bobur qalbin ezding,
G'am-u quvonch bo'lsa, borin ko'rgan elim,
Qadring baland bo'lsin doim, ona tilim!*

*Ibn Sino malhamida davo bo'lding,
Yassaviyning hikmatida sado berding,
Furqat kabi ba'zan eldan judo bo'lding,
Qayda bo'lsa, ma'rifatga eltar yo'lim —
Qadring baland bo'lsin doim, ona tilim!*

*Sen Cho'iponsan — xalq yo'lini yoritguvchi,
Qodiriyssan — nohaqlikni aritguvchi,
Muhabbati asrlarni qaritguvchi,
Usmon Nosir iztirobin tuygan dilim,
Qadring baland bo'lsin doim, ona tilim!*

*Madhiyamiz so'zlarining ko'p siri bor,
Abdulla Orif tug'yonining sururi bor,
Muhammad-u Shavkat Rahmon g'ururi bor,
Muhabbatga, iftixorga to'la dilim,
Qadring baland bo'lsin doim, ona tilim!*

*Madh etishga aytar so'zim baribir oz,
Toleyimdan mamnun bo'lib aytgum dilroz,
Ona tilim madhi uchun bering ovoz,
Ajdodlardan avlodlarga borar yo'lim,
Qadring baland bo'lsin doim, ona tilim!*

Surayyo QURBONOVA,
Jarqo'rg'on tumanidagi
31-maktabning ona tili va
adabiyot fani o'qituvchisi

O'zbek tili va madaniyatini



Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti "Umumiy tilshunoslik" kafedrasida dotsenti, pedagogika fanlari nomzodi, xalq ta'limi a'lochisi Saodat Odilova necha yillarki chet ellik fuqarolarga o'zbek tilini o'rgatishda jonbozlik ko'rsatib kelmoqda. U TDPda tahsil olgan va shu yerda 30 yildan ortiq vaqt davomida dars berib keladi.

Saodat opa o'zbek tili, nutq madaniyati, qiyosiy tipologiya, kompyuter lingvistikasi kabi fanlardan ta'lim berish bilan birga 60 dan ortiq ilmiy ishlariga mualliflik qilgan, bir necha elektron ta'limiy majmualari uchun patent olgan. O'zbekistonda birinchi bo'lib o'zbek tilini kompyuter texnologiyalari vositasida o'qitish bo'yicha dissertatsiya yoqlagan. Qahramonimiz uch tilda, ya'ni o'zbek, rus va ingliz tillarida bir nechta fandan dars beradi. Shu bilan birga 20 yildan ortiq vaqt mobaynida chet elliklarga o'zbek tilini o'rgatib keladi. Xorijlik o'quvchilari orasida talabalar, magistrantlar, tadqiqotchilar va tadbirkorlarni uchratish mumkin. U shu kunga qadar Janubiy Koreya, Germaniya, Malayziya, Xitoy, AQSH, Yaponiya, Tayland, Singapur, Buyuk Britaniya, Luksemburg, Rossiya, Ukraina, Kanada kabi davlat fuqarolariga o'zbek tili va madaniyatini o'rgatgan. 10 yildan oshdiki, yoz oylari AQSHning Arizona davlat universitetida o'zbek tilidan dars berib keladi. U yerda o'zbek tilidan tashqari yana 14 til o'qitiladi. Talabar yetti hafta davomida o'zlari tanlagan tildan ta'lim oladilar.

Ustoz o'zbek va xorij talabalari o'rtasida do'stlik aloqalarining o'rnatilishiga ham sababchi bo'lmoqda. Xorijlik talabalar pedagogika universiteti talabalari bilan muloqotda bo'lib, bir-biriga til o'rganishda ko'maklashishadi. Odilovanning O'zbekistonda tadqiqot o'tkazgan amerikalik talabasi Rayn Shvitser "O'zbeklar dunyoni boshqacha ko'rishni boshlashimga sababchi bo'ldi" deydi o'z facebook sahifasida qoldirgan ochiq xatida. Saidniyozovlar pedagogik sulolasining munosib davomchisi, o'zbek tilini o'qitish va uni ommalashtirish bo'yicha o'z yo'nalishiga ega bo'lgan ustoz bilan yaqindan suhbatda bo'ldik.

Bir necha yildan buyon chet el fuqarolariga o'zbek tilini o'rgatib kelayotgan ekansiz. Shu faoliyatingiz bilan qisqacha tanishtirib o'tsangiz.

– 30 yildan beri shu universitetda til va tilga tegishli bir qancha fanlardan, jumladan, o'zga tilli guruhlarda o'zbek tili fanidan ham dars beraman. Bundan 23 yil ilgari tasodif tufayli xorijliklarga o'zbek tilini o'rgatadigan til marakaziga borib qolganman. Ularga yozgi ta'til vaqti o'zbek tili o'qituvchisi kerakligi tufayli meni taklif qilishgan. Markaz o'qituvchilaridan bu yo'nalishning o'ziga xosliklarini o'rganganman va o'shandan beri har yili 2-3 nafar xorijlik fuqaroga o'zbek tilini o'rgatib kelaman. Universitetimizga turli loyiha va dasturlar asosida kelgan chet elliklar bilan ham ishlaganman. Masalan, universitetimiz bilan shartnoma tuzib O'zbekistonga kelgan germaniyalik Birgit Leybe ismli magistrantga bir yarim yil davomida o'zbek tilidan saboq berganman. Umuman olganda, 20 dan ortiq davlat vakillariga 23 yildan buyon o'zbek tilini o'rgataman. 2011-yildan beri esa Amerika Qo'shma Shtatlarining nufuzli universitetlaridan biri bo'lgan Arizona dav-

lat universitetida yoz oylari o'zbek tili va madaniyatidan dars beraman.

– Chet elliklarga o'zbek tilini o'rgatish oson emas, ayniqsa, ularda tilimiz haqida umuman tushuncha bo'lmasa, o'qitishni osonlashtirish uchun yordamchi tildan foydalanishga to'g'ri keladi. Shunda siz qaysi tildan foydalanasiz, qaysi tillarda erkin muloqot qila olasiz?

– Aslida, pedagogika institutining "Milliy maktablarda rus tili va adabiyoti" yo'nalishini tamomlaganman. O'qishni bitirishim bilan "Tarjima nazariyasi va amaliyoti" kafedrasida ish boshladim. Keyin aspiranturada o'zbek tilini o'qitish metodikasi bo'yicha tahsil oldim. 2004-yili o'zbek tilini kompyuter texnologiyalari vositasida o'qitish metodikasi bo'yicha dissertatsiya yoqladim. 60 ga yaqin ilmiy-metodik ish e'lon qilganman, ularning aksariyati o'zbek tilida yozilgan. Bundan tashqari, oilamizda tillarni o'rganishga e'tibor kuchli bo'lganligi sababli ingliz tilini ham o'rganganmiz. Chet elliklarga o'zbek tilini o'rgatishda o'qituvchilar har xil metodikadan foydalanadi, ya'ni biri yordamchi til bilan, biri to'liq o'zbek tili muloqot qilish orqali o'rgatadi. O'zi umuman metodlarni qo'llash ta'lim oluvchining til o'rganish layoqatiga, tajribasiga ham bog'liq bo'ladi. Yoshi katta insonlar bilan ishlaganim sababli tezroq natija olish maqsadida darslarimda ingliz yoki rus tildan ham foydalanaman. Biroq talabalar tilni o'ziga o'rganib olinganlaridan keyin mashg'ulot faqat o'zbek tilida olib boriladi.

– Hozir ham O'zbekiston, ham Amerikada chet elliklarga o'zbek tilini o'rgatayapsiz. Shu o'rinda bir savol tug'iladi. Nimaga aynan siz? Yurtimizda tilshunos olimlar ko'p. Bu ishini ulardan biri qilishi mumkin edi.

– Yoshlikdan oilamizda "kamtarga kamol" deb o'rgatishgani sabab bu savolga javob berish men uchun biroq noqulay. Keling, shu savolni "Chet elliklarga o'zbek tilini o'rgatish uchun o'qituvchida qanday malaka va xususiyatlar bo'lishi kerak?" deb olaylik. Birinchidan, o'qituvchi yaxshi tajribaga ega bo'lishi, ikkinchidan, unda til hissi mavjud bo'lishi, har xil tillarni qiyoslay olishi va, uchinchidan, talabalar bilan ishlashni bilishi, pedagogik mahoratga ega bo'lishi, tolerant bo'lishi lozim. Masalan, bizning yoshlar: "O'qituvchi talabani tushunadi" deganda, dars qoldirsa, kech qolsa ko'z yumadigan, talabani bilimni sayoz bo'lsa ham yuqori baho qo'yib beradigan o'qituvchini nazarda tutishadi. Chet elliklar esa "tushunadigan o'qituvchi" deganda, nega shu talaba shu xatoga yo'l qo'yadi, qanday qilib bu kamchilikni bartaraf etish mumkin, psixologiyasida, mentalitetida qanaqa o'ziga xoslik bor, shulardan kelib chiqib mavzuni qanday tushuntirish lozimligini biladigan va shunga qarab yondashadigan o'qituvchini nazarda tutadilar. Xorijlik talabalarining o'ziga xosligi ham shunda.

Umrini harakat, mehnat va kasbiga



Ular dars jarayonida shunday savollar bilan murojaat qilishadi, o'zbek talabasidan hech qachon bunday savollarni kutmaymiz. Bu bilan o'zbek talabalarini yomon demoqchi emasman, shunchaki ularning dunyoqarashi biznikidan biroz farq qiladi. Xorijliklar mantiqiy savollar berishni yaxshi ko'radi va aniq javob olmaguncha qo'ymaydi. Masalan, "men boraman", "sen borasan", "siz borasiz" deyiladi, lekin nega "biz borabiz" emas, "boramiz" deyiladi? Albatta bu kabi savollarga javob berish uchun tilshunoslikning turli bo'lim va yo'nalishlaridan boxabar bo'lish yoki bilmaganni topib o'rganib, talabalarga tushuntirish kerak bo'ladi.

Xorijliklarga o'zbek tilini o'qitish jarayoniga qanday kirib qolganimga kelsak, turmush o'rtog'imning opasi uzoq yillar Talabalar shaharchasidagi Til markazida dekan lavozimida ishlagan. 1998-yilning yoz oylari ularda o'zbek tili o'qituvchisi yetishmay qolgani sabab 2-3 oy ishlash berish uchun meni taklif qilishgan. Shu tariqa bo'lib xorijliklarga dars berishga qiziqib qolganman.



Amerikaga qanday borib qolganimga kelsak, bir kitobni o'qiyotganimga, ichidan xatcho'p chiqdi. Qiziqib olib qarasam, Fulbright dasturining reklamasi bor ekan. Xatcho'pda dastur doirasida loyihalar qabul qilinayotgani, uning elektron pochta yozilgan ekan. Qiziqib dasturda qatnashdim. Lekin dastur tashkilotchilarining "Chet ellik fuqarolarga 3-bosqich darsligini yaratish" deb nomlangan loyiham besh yuz ming odamni qamrab olmasligi, dolzarbli u qadar ham katta emasligini aytishdi. Ammo bu dasturda ishtirok etish jarayonida juda ko'p tanish orttirdim. Ular orasida Fulbright dasturi bo'yicha Arizo-

na universitetida ishlab kelgan odam ham bor edi. Shu tanishim menga internetda Amerika universitetlariga o'qituvchilar jalb qilish uchun e'lonlar berib borilishini aytdi. Tanishimning gapi bilan qarab ko'rsam rostan ham shunday e'longa ko'zim tushdi va u yerga ham hujjat yuburdim. 6 nafar hujjat topshirgan kuchli professor pedagoglar ichida men ham bor edim. Uch xil imtihondan o'tdik va meni ishga taklif qilishdi. O'shandan beri har yili yozda o'zbek tilidan dars o'tish uchun chaqirishadi.

– Siz tilimizni o'rgatayotgan aksariyat davlat fuqarolari bilan tillarimiz boshqa-boshqa oilaga mansub va bu albatta dars jarayonida qiyinchilik tug'diradi. Siz esa ularga bor-yo'g'i yetti hafta davomida o'zbek tilini o'rgatar ekansiz. Buni qanday uddalaysiz?


– To'g'ri, muddat uncha katta emas. Lekin o'rganuvchilar, eng avvalo, o'zlarining flektiv tili va agglutinatativ tilimiz orasidagi farqni bilib olishsa o'rganishlari ancha oson kechadi. O'zbek tili grammatikasi mantiqli bo'lgani, ya'ni so'z yasalganda o'zakkda o'zgarishlar bo'lmisligi sababli (ayrim hollardan tashqari) tilimizni o'rganish oson. Kursimiz esa intensiv kurs. Universitetda 14 ta tildan dars beriladi. Har bir o'qituvchi o'z ona tilini, madaniyatini talabalarga o'rgatadi. Buning uchun hammaga 7 hafta muddat beriladi. O'rta 10 nafar talabasi bo'lgan guruh bilan ertalabdan tushlik vaqtigacha dars o'tiladi. Tushlikdan keyin taqdimotlar qilinadi, to'g'arak tashkil etiladi, so'ng mustaqil ishlar bilan shug'ullanishadi. Bir kunda talaba 14-16 soat vaqtini o'zbek tilini o'rganishga sarflaydi. Biz ular bilan doim aloqada bo'lib

turamiz. Dars tarkibida til bilan qo'shib millat madaniyati ham o'rgatiladi. Chunki zamonaviy metodikada madaniyatsiz tilning o'zininga o'rgatish hech qanday samara bermaydi. Talaba bir haftada 5 kun 4 soatdan rasmiy dars qiladi. Xuddi shu besh kun tushdan keyingi vaqtda ham faqat o'zbek tili bilan shug'ullanadi. Har hafta juma kuni oraliq nazorat bo'ladi. Bunda o'qish, yozish, tinglab tushunish, gapirish va madaniyatga tegishli mashqlar ham bo'ladi. Arizona davlat universitetida turli yillarda o'zbek tili 3 darajada o'qitib kelinadi: boshlang'ich, o'rta va yuqori. Bu darajalarning har birida tahsil olayot-

O'zbek tili jozibasi, so'z ma'nolarining serqirraligi, grammatikasida mantiq kuchliligi bilan ajralib turadi va o'zbek tilini o'rgangan odam 20 ga yaqin boshqa turkiy tillarni ham tushuna boshlaydi.

jahonga tanitayotgan ayol

fidoyilik bilan bezagan ustoz hikoyasi



ganday talabani bilingiz. Yuqori darajaga ko'tarilgani sari darslar orasiga adabiyot fani ham qo'shiladi. Undan yuqoriroqda esa uslubiyatdan ham dars beramiz.

– Xorijliklar o'zbek tilini asosan qanday maqsadlarda o'rganishadi?

– Bu ishni endi boshlagan vaqtlarim chet elliklar o'zbek tilini nimaga o'rganadi kabi savollar ko'p bo'lardi. Hozir esa, nega o'rganmasligi kerak deyiladi. O'zbek tili jozibasi, so'z ma'nolarining serqirraligi, grammatikasida mantiq kuchliligi bilan ajralib turadi va o'zbek tilini o'rgangan odam 20 ga yaqin boshqa turkiy tillarni ham tushuna boshlaydi. Bundan tashqari, biz turkiy tili millatlar o'rtasida son jihatidan uchinchi o'rinda turamiz. Dars boshlashdan avval hammaning tilini o'rganishdan maqsadi nimaligi so'raladi va shunga qarab har biriga individual yondashuv bo'ladi. Arizona universitetida talabalar qabul qilinishidan avval nega aynan o'zbek tilini tanlagani, bilimni ke-lajakda nimaga safarbar etmoqchiligi va O'zbekiston hamda AQSH munosabatlarini mustahkamlashda egallagan bilimidan qanday foydalanishi haqida ingliz tilida kichik esse yozishadi. Ba'zilar tariximizga qiziqishi, umri davomida Registonni ko'rishni orzu qilganini aytishadi, ba'zilar O'zbekiston madaniyatiga qiziqishini, bu bo'yicha ilmiy ish qilmoqchiligini yozadi, yana birlari BMTda Markaziy Osiyo masalalari bo'yicha ishlashini, ularga shu yerdagi besh davlatdan birining tilini o'rganish talabi qo'yilganligini, kimlardir esa tariximizning ma'lum bir davri haqida risolalarni yozmoqchiligini aytadi va shunday turli sabablar bilan o'zbek tilini o'rganishadi. Masalan, germaniyalik qizimiz Bergit o'zbek gilam to'qish san'ati haqida ilmiy ish olib borgan. Yana bir talabam sho'rlangan yerlarni yuvish bo'yicha tadqiqot olib borgan, Xorazmda shu ish bilan shug'ullangan. Boshqa biri o'zbek lotin alifbosini tadqiq qilgan, O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi bilan o'z yurtining qonunini taqqoslash bo'yicha dissertatsiya yozgan. O'zbek tilini o'rgananlar orasida shunday talabalarimiz borki, bugungi kunda O'zbekistonning chekka va olis hududlarida yashab o'sha yerdagi maktablarda o'quvchilarga ingliz tilidan dars berishmoqda.

Shunday bir savol tug'iladi, millati, kasbi, yoshi har xil bo'lgan insonlar nima uchun turli tillarni o'rganadi. Bag'rikenglik asli shundan boshlanadi. Boshqa bir davlatning millati, madaniyatini tili orqali o'rganish ham shu millat bilan do'stlashishga sabab bo'ladi. Shuning uchun poliglottlarni juda ham hurmat qilaman. Amerikalik, germaniyalik talabarim orasida ba'zilar 7-8 xil tili biladi. Masalan, taniqli sayohat blogeri Brain Greko dunyoning saksonga yaqin davlatiga sayohat qilgan. U borgan davlatida albatta qisqagina bo'lsa ham shu millat tilida muloqot qiladi. Bu esa o'sha xalqning bu insonga nisbatan hurmatini oshiradi.

– Ham o'zbek, ham chet davlat talabalariga dars berayotgan ustoz sifatida ularni o'zlashtirish va darsdagi madaniyat jihatidan solishtirib bera olasizmi?

– Bu juda muammoli va murakkab savol. Aslida, biror narsani o'rganishda hamma gap motivatsiyaga bog'liq. Agar talabaga shu tili o'rganmasang o'zing xohlagan ishda ishlash olmasang deyilsa, yetti hafta tugul uch haftada o'rganadi. O'zbeklarga rus tilini o'rgatishimdan kelib chiqib aytadigan bo'lsam, O'zbekistonda rusiyazonlar ko'p va aksariyat yoshlar qisman bo'lsa-da bu tildan xabardor. Bizda rus tilini o'rganish uchun eng kerakli tabiiy muhit bor. Ammo chet davlatda turib o'zbek tilini o'rganish biroz qiyin. Biroq shuni ayta olamanki, ularda ichki motivatsiya bizning talabalarga qaraganda ancha kuchli.

Amerikadagi talabalar o'zi xohlab ta'lim olish uchun kelgan va halollik darajasi o'ta yuqori, ya'ni nazoratlarda umuman bir-biriga yordam bermaydi. Yana bir jihati, ularda mustaqil ta'lim olish madaniyati yuqori. Bizda ayrim talabalar mustaqil ta'lim olish madaniyati shakllanmagan, birovdan yoki internetdan ko'chirib berishni afzal ko'radi. O'zi bita bo'lsa-da, ma'lumotni qiyinalib topsa butun umr esida qolishini tushunmaydi. Dars jarayonida har bir o'qituvchi o'zini psixolog va artistdek his qiladi. Shu sabab men uchun darsning u yerdagi va bu yerdagi muhiti ham bir xil. Talabalar munosabatida esa farq bor. Biroq bu holat kundan kunga o'zgarib bormoqda, ta'limni raqamlashtirish ishlari jadal olib

borilmoqda. Bu degani, tez kunda bizning talabalarimiz ham mustaqil ta'lim olishga bo'lgan munosabatlarini yaxshilaydilar.

– Millat uchun uning madaniyatini, tilini tanitish katta narsa. Ayniqsa, millat yoshlari o'z tilini, madaniyatini hurmat qilmay qo'ygan bir paytda. Shunday yoshlarga nima degan bo'lardingiz?

– Hazrat Navoiy bobomizning "Nutq yomon bo'lsa, tili ayblamang" mazmunidagi gaplari bor. "Men rus tilida gapiraman, chunki hissiyotlarimni o'zbek tilida ifoda etolmayman, o'zbek tilida bu hissiyotni ifodalaydigan so'zlar yo'q" deyidigan yoshlar ko'payib ketdi. Tilni, shevalarning jilosini, adabiy tilning barcha elementlari va boyliklarini o'rganing, undan keyin xulosangizni aytg. Siz tili bilmasligingiz, bu til kambag'al degani emas. Chet elga chiqadigan yoshlarimizda ham vatanparvarlik hissi bo'lishi kerak. Buni faqat vatanimiz bayrog'ini ko'tarib yurib emas, nutqlarida ham ifoda etsalar nur ustiga nur bo'lar edi.

Shu o'rinda bir voqea esimga tushdi. Xorijiy talabalar bilan TDPU talabalarining do'stlik aloqalarini o'rnatishiga yordam beraman. Ular bir-biridan o'zbek va ingliz tillarini o'rganishadi. Shu sabab vaqti-vaqti bilan virtual uchrashuvlar (speaking club) tashkil qilib turamiz. O'zbekistonga kelgan chet elliklar bilan TDPU talabalarini davra suhbatlarini o'tkazadilar.

Gruziya poytaxti Tiblisi shahrida ilmiy-amaliy anjuman bo'lgan va o'sha yerdagi o'zaro muloqotda luksemburglik, germaniyalik va yaponiyalik yosh olimlar qaysi chet tili bilishi to'g'risida suhbatlashganda uchalasi ham o'zbek tilini bilishini aytgan. Keyin ma'lum bo'lganki, uchalasi ham mening darslarimda qatnashgan talabalar ekan. Keyin ular o'zbek tilida gaplashib, birgalikda biz darslarda o'rganilgan qo'shiqni kuylashgan va menga rasmlarini jo'natishgan. So'z bilan ta'rifiab bo'lmaydigan g'urur va xursandchilikni his qilganman o'shanda.

– Ko'pchilikda qaysidir vaqtga kelib o'z kasbidan zerikish holati bo'ladi. Ya'ni, men o'zi bu yerda nima qilib yuribman, osonroq kasb tanlasam bo'lmasmidi kabi savollar qurshovida qoladi. Sizda hech shunday holat bo'lganmi?

– Xalqimizda bir qiziq ibora bor: "pe-shonasiga o'qituvchi deb yozib qo'ygan". Bizda ham xuddi shunday, ya'ni otanam Nizomiy nomidagi TDPUda uzoq yillar faoliyat yuritishgan. Otam Abdulrahim Saidniyozov o'zbek tili sintaksisi bo'yicha mutaxassis, professor lavozimida ishlagan. Onam Xayriniso Saidniyozova ingliz tili mutaxassisi, dotsent bo'lgan. Umuman qarindosh-urug'lari-miz orasida o'qituvchilar, ziyolilar juda ko'p. Bu ulug' dargoh bo'lmish universitetimda o'zbek pedagogikasi darg'alari, hazrati insonlar sabog'ini olganman. Ular nafaqat ilmiy-pedagogik, balki hayot saboqlarini ham berishgan bizga. Ularning, ilmiy rahbarim professor Samixon aka Ashirboyevning ishonchlarini oqlashga harakat qilib kelaman. Ustozlar ishinig davomchisi sifatida men ham kasbimni juda yaxshi ko'raman. Uyda farzandlarim, nabiralaram biror narsa haqida so'rashga qo'rqishadi, chunki tushunib olganini ko'zidan anglamagunimcha ma'lumotlarni tushuntiraveraman, uqti-raveraman. Charchash bo'ladi, albatta. Ayniqsa ertalabdan-kechgacha ishlagan vaqtlarimda. Ba'zan o'zi nima qilib yuribman bu yerda, hozirgi darsimning bolalarga nima foydasi bo'ldi degan savollar tug'ilib qoladi. Asosan, faqat kasbimdan qoniqish hissi sezaman. O'zimni boshqa kasbda tasavvur ham qila olmayman. Yaqinlarim ko'p aytadi: bo'ldi, nafaqaga ham yaqin qoldi, bunchalik jon berib yubormang deb. Lekin men uchun ertalabdan kechgacha bitta kompyuter qarshisida turib ishlagandan, yoki boshqa faoliyatni bajargandan tik oyoqda talabalarga bilim berish, har soatda turli chehralarga qarab ularni biroz bo'lsa-da rivojlantirishga harakat qilish afzal.

Arizona universitetida har semestr yakunida talabalar so'rovnoma to'ldirish orqali o'qituvchiga baho berishadi. Bularning barchasi anonim tarzda amalga oshiriladi va ular bir jadvalda bizga baho berishadi, biz haqimizda o'z fikrlarini yozishadi. So'rovnomada darsdan tashqari vaqtlarda bu o'qituvchini topish mumkinmi, darsda ishlatayotgan materiallari zamon talabiga javob beradimi, o'z xalqining madaniyatini o'zi yaxshi biladimi kabi 30 dan ortiq savollar bo'ladi. Talabarning baholashi ortidan qaysidir ma'noda har yili tajribamiz o'sib bormoqda. Ularning har biridan nimadir olaman.

Talabalariga berilgan savollar orasida o'rganish jarayonida sizga qiyinchilik tug'dirgan narsa nima, yengillik bergan narsa nima va umrbod eslab qoladigan narsangiz nima kabilari ham bo'ladi. Shu savollarga berilgan javoblar orasida bir talabani gapi esimda qolgan: "O'qituvchimiz o'zining tilini, millatini, madaniyatini shunchalik yaxshi ko'radiki, yetti hafta avval o'zbek tili, millati borligini bilmagan bo'lsam, bugun menda ham shu millatga, davlatga nisbatan muhabbat uyg'ondi. Qo'limdan kelganini qilaman, lekin umrim so'ngiga qadar bir marta bo'lsa ham shu davlatga borib kelaman". Mehnatimga, o'qituvchilik faoliyatimga berilgan eng katta baho shu deb bilaman...

"Ma'rifat" muxbiri
Guluro YUSUPOVA suhbatlashdi.

Oʻzbek tili haqida aql bovar qilmas dalil yoki muhtasham kashfiyot

Muqaddima

2020-yilda ToshDOʻTAU va TerDU tadqiqotchilari **Shahlo Hamroyeva, Oʻral Xoliyorov va Gulhayo Abdulimovalar** tomonidan “Oʻzbek tilining feʼl shakllari lugʻati” yaratildi. Lugʻat tilimizda tarjima, imloviy tekshiruv, morfologik avtomatik analizator va boshqa kompyuter dasturlari yaratishdagi qiyinchiliklarni bartaraf etadi. Tilimiz grammatik lugʻatlarining tuzilmaganligi sababi oʻzbek tili morfologik tizimining juda murakkabligi va morfologik shakllarning miqdori juda koʻpligi edi. Anʼanaviy kartochka usulida bunday dalillarni toʻplash va tartiblash uchun bir kishining umri yetmaydi.

Aksariyat rivojlangan mamlakatlar tillarining har birida koʻplab grammatik lugʻatlar yaratilgan. Ayniqsa, ingliz va rus tili bu borada yetakchi hisoblanadi. Masalan, birgina rus tilining oʻzida oʻnlab grammatik lugʻat tayyorlangan va bu jarayon hali ham davom etmoqda.

Rus tilida alohida feʼl turkumining ham grammatik shakllari lugʻati yaratilgan. Masalan, A.P.Okuneyeva rus tilidagi 4000 feʼlning 60000 feʼl shakllari toʻplangan lugʻat tuzgan. V.D.Tolmachyova esa feʼl shakllarining oʻquv lugʻatini nashr ettirgan. Yana birgina feʼllarning shakllari boʻyicha turli xil variantlarda yaratilgan lugʻatlarning roʻyxatini davom ettirish mumkin.

Bu lugʻatlarning barchasi elektron koʻrinishga keltirilgan, foydalanish uchun turli kompyuter dasturiy taʼminotlari ishlab chiqilgan. Ushbu lugʻatlar elektron orfografik tekshiruv, tarjima dasturlari, avtomatik morfologik shakllarni aniqlash (morfoanalizator) tizimlari, korpuslar uchun maʼlumotlar bazasi boʻlib xizmat qilmoqda.

Oʻzbek tilida soʻzlarning morfologik shakllari tizimi murakkab va miqdori juda koʻp. Ayniqsa, feʼl soʻz turkumi shakllari alohida ahamiyatga ega. Shuning uchun A.Poʻlatov oʻz kitobida shunday yozadi: “Oʻzbek tili grammatikasi (yuqorida

koʻrsatilgan tizimda) toʻla oʻrganib chiqilmagan, yaʼni sistemalashtirilmagan, formallashtirilmagan. Masalan, ot va boshqa turkumlarga oid soʻz shakllar, gap konstruksiyalari toʻliq roʻyxatga olinmagan (masalan, *oʻzbek tilida birgina ishlamoq feʼlining shakli taxminan 100 000 dan oshadi, ingliz tilida esa taxminan 150 tagina shakli mavjud, xolos*). Bular haqidagi maʼlumotlar A.Poʻlatov, T.Moʻminova, I.Poʻlatovalar qalamiga mansub “Dunyoviy oʻzbek tili. Oʻzbek tilida feʼl shakllari va ularning rus, ingliz tilidagi koʻrinishlari” (Toshkent: Universitet, 2003) asarida keltirilgan. Koʻrinadiki, oʻzbek tilidagi morfologik shakllar boshqa tillarning grammatik shakllaridan batamom farq qiladi, juda boy imkoniyati, kombinatsiyalarining xilma-xilligi bilan ajralib turadi.

Oʻzbek tili feʼl shakllarining morfologik lugʻatini yaratishda oʻzbek tilida mavjud grammatik shakllar va ularning barcha oʻrinlarini aniqlash, har bir shaklning grammatik tarkibi, grammatik morfemalarning modelini koʻrsatish maqsad qilib olinadi. Maqsadni amalga oshirish, amaliy tadqiq uchun lugʻat mualliflari feʼl shakllarining morfologik lugʻatini tuzdi. Albatta, bunday morfologik lugʻat nafaqat taʼlimiy korpusning maʼlumotlar ombori, balki kelajakda oʻzbek tili milliy korpusi morfologik tavsiflash dasturini, morfologik analizatorini ishlab chiqishda asosiy lingvistik taʼminot boʻlib xizmat qiladi.

Lugʻat qanday tuzildi?

Statistik tadqiqotlar shuni koʻrsatdiki, oʻzbek adabiy tilida **4000 tacha** feʼl mavjud. Oʻzbek tilida bir feʼlning morfologik shakllari haddan ziyod koʻp boʻlgani uchun boshqa tillardagi grammatik lugʻatdan farqli oʻlaroq, faqat bitta feʼl tanlandi. Shu bitta feʼlning shakllari oʻzbek tili imkoniyati naqadar boy ekanligini ochib beradi, qolaversa, boshqa feʼllarning shakl-

lari uchun ham asos boʻlib xizmat qiladi.

Oʻzbek tilidagi feʼl shakllarining miqdori haqidagi fikrlarni A.Poʻlatovning kitobidan boshqa hech bir manbada kuzatmadik. Lekin lugʻatni tuzish jarayonida bu miqdorni keltirib chiqarish yoʻli oʻzini unchalik oqlamasligi, miqdori ham toʻgʻri emasligi, barcha feʼllar uchun bir miqdorni belgilash xato ekanligi koʻrinib qoldi.

Avvalo, morfologik shakllarni oʻrganishda bitta feʼlni tanlash borasida mualliflar shunday yozadi: “Oʻzbek tilida feʼl shakllarini koʻrsatish uchun misol sifatida *ishlamoq* feʼli olindi. Feʼlning baʼzi shakllarini berishda, muvofiq kelishiga qarab, boshqa feʼllardan (masalan, *yuvmoq, oʻqimoq, sevinmoq* kabi) ham foydalanildi”. Bu asarda qayd etilgan shakllar faqat bitta feʼlga tegishli emasligini koʻrsatadi.

Yuqoridagi manbada feʼl shakllarining oʻzgarishiga feʼldagi quyidagi zaruriyatlar keltiriladi:

- gapdagi vazifasi;
- gapning qaysi turida ishlatilayotganligi;

- qaysi maylda ishlatilayotganligi;
- qaysi zamonda ishlatilayotganligi;
- qaysi nisbatda qoʻllanilayotganligi;
- qaysi yordamchi feʼllar bilan kelishi;
- qaysi yuklamalar bilan ishlatilayotganligi.

Ushbu grammatik vositalarning turli kompozitsiyalaridan, yaʼni qurshovi orqali 583 ta shakl keltirib chiqarilgan. Bu oʻrinda hali harakatning kuchli yoki kuchsiz darajasini bildiruvchi vositalar, vazifa shakllariga qoʻshilishi mumkin boʻlgan egalik, kelishik, son qoʻshimchalari kabi vositalarning birikishi hisobga olinmagan.

Feʼl shakllari hisoblanishi

I. Darak gaplar.

Feʼl shakllarining umumiy sonini hisoblashda bevosita kitobga asoslaniladi, chunki kitobda keltirilgan tartib raqami boʻyicha amalga oshirilgan.

- 254-raqamgacha ijro maylli feʼl shakllari keltirilgan;
- 299-raqamgacha shart maylli feʼl shakllari (ergash gaplar 45 ta, bosh gaplar 30 ta) keltirilgan, yaʼni 254+45+30=329;
- 329 x 28 (koʻmakchi feʼllar) = 9212;
- 9212 x 6 (shaxs-son turlanish) = 55272;

- Buyruq maylidagi feʼl shakllari 49 ta:
- 49 x 28 = 1372;
- 55272 + 1372 = 56644.

Jami: darak gaplardagi barcha feʼl shakllari soni 56644 ta.

II. Soʻroq gaplar.

- Agar ijro maylida 254 ta x 2 (-mi, -chi yuklamalarni inobatga olsak) = 508;
- shart maylida esa 75 x 2 = 150;
- buyruq maylida 49 x 2 = 98;
- 508+150+98=756.

Jami: demak, soʻroq gaplarda 21168.

Shaxssiz feʼllar (bu yerda mayl yoʻq, shuning uchun alohida hisoblanadi):

Sifatdosh (bu taxminiy hisoblanadi, chunki sifatdoshning baʼzilariga koʻmakchi feʼl qoʻshib boʻlmaydi):

55 x 28 = 1540.

Ravishdosh hammasi boʻlib 95 ta (koʻmakchi feʼl bilan).

Modal soʻzlar (kerak, lozim, mumkin kabilar):


6 x 28=168

1540+95+168=1803,

Jami: 1803.

III. Inkor gaplar.

Darak gaplardagi feʼl shakllarini 2 ga koʻpaytirsak, barcha inkor gaplar soni hosil boʻladi.



Barcha feʼllar koʻrinishlarining umumiy soni:

56644+21168+1803 = 79615 (inkor gaplarni qoʻshmaganda).

Endi inkor gaplarni hisoblaymiz: 329+49=378 x 28 = 10584

10584 x 2 = 21168

1803 x 2 = 3606

Bularning hammasini qoʻshamiz: 21168+3606=24774

Jami: 79615+24774=104389 (inkor gaplarni qoʻshganda).

Lekin baʼzi inkor shaklni yasovchilar universal boʻlmagani uchun umumiy holda barcha feʼl koʻrinishlari miqdorini 100 000 ta deb olamiz.

Manbada, avvalo, shaxs-son shakllari bilan tuslanmagan, koʻmakchi feʼllar-siz 329 ta shakl hosil qilingan va 28 ta koʻmakchi feʼlning barchasi yuqoridagi feʼlga qoʻshila oladi, degan nazar bilan koʻpaytirilib, 9212 ta shakl kelib chiqishi hisoblab topilgan. Lekin 28 ta koʻmakchi feʼl yetakchi feʼl boʻlib kelgan feʼlning barchasiga qoʻshilib ketavermaydi. “Koʻmakchi feʼllarning qoʻllanish doirasi har xil. Ayrim koʻmakchi feʼllar juda koʻp feʼl doirasida qoʻllana olsa, baʼzilari

kam feʼl bilangina birika oladi”. Yetakchi feʼllarning koʻmakchi feʼlga birika olish miqdorini aniqlash maqsadida koʻp qoʻllanuvchi oʻnta feʼl (*yuv, kiy, oʻt, chiq, ich, oʻqi, ye, ishla, toʻxta, angla*) olindi. 28 ta koʻn...hi feʼlning -a/y, -b/ib shakllari bilan birikish imkoniyatidan kelib chiqib, 34 xil shaklga (+b ber/+ib ber, +y ber/+a ber, //+yver/+aver, +y ol/+a ol, //+yol/+ol, +y bil/+a bil, +b bit/+ib bit, +b bitir/+ib bitir, +b bor/+ib bor, +y bor/+a bor, +b kel/+ib kel, +y kel/+a kel, +y boshla/+a boshla, +b boq/+ib boq, +b koʻr/+ib koʻr, +b qara/+ib qara, +b boʻl/+ib boʻl, +b yet/+ib yet, +yoz/+ayoz, +b yot/+ib yot, +b tur/+ib tur, +b oʻtir/+ib oʻtir, +b yur/+ib yur, +b ket/+ib ket, +y ket/+a

likdagi kompozitsiyalarining barchasi 62 xil shaklga ega. Vositalarning barchasini birlitirib koʻrilsa, nisbat qoʻshimchalari turli qurshovidan hosil boʻlgan 62 xil shakldan quyidagi birikishlarni olish mumkin: *yuv – 15, kiy – 23, oʻt – 12, chiq – 8, ich – 13, oʻqi – 12, ye – 17, ishla – 13, toʻxta – 14, angla – 14 ta*.

Umuman olganda, boshqa grammatik vositalar ham feʼllarga turli xilda qoʻshiladi. Feʼllar morfologik shakllarining miqdorini belgilashda bir qancha feʼl koʻrinishini aniqlab, qolganini koʻpaytirish yoʻli bilan hosil qilib boʻlmaydi. Xulosa qilib shuni aytish mumkin, feʼllarning grammatik shakllari bir-biridan oʻzgacha miqdorga ega va bu miqdorni aniqlash uchun har bir feʼl nuqtayi nazaridan alohida tekshirish kerak boʻladi. Izlanish natijalari esa, elektron lugʻat, taʼlimiy korpus, turli lingvistik dasturlar, orfografik tekshiruv, tarjima dasturlari uchun qimmatli manba boʻlib xizmat qiladi. Bu til imkoniyatining bir tomonini, sir-sinoatini yaqqol namoyon qiladi.

Oʻzbek tilida bir paytning oʻzida umumiy grammatik lugʻatni tuzish mushkul vazifa. Chunki yuqoridagi shakllarning turli kombinatsiyalari va miqdorining koʻpligi bunga toʻsqinlik qiladi. Shuning uchun, avvalo, grammatik shakllarni eng koʻp qabul qiluvchi feʼl soʻz turkumiga oid har bir soʻzning morfologik shakllari lugʻatini tuzish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz.

Lugʻat uchun asos qilib “kiy” feʼli tanlandi. Chunki bu feʼl boshqa feʼllarga qaraganda koʻproq nisbat shakllarini hamda koʻmakchi feʼllarni qabul qila oladi.

Mazkur bir feʼlning morfologik lugʻatini tuzishda grammatik shakllar quyidagi tartibda toʻplab chiqildi. Avvalo, miqdori juda koʻp boʻlgan zamon qoʻshimchalari yigʻildi. Oʻtgan zamon – 16 ta (variantlari bilan 22 ta), hozirgi zamon – 18 ta (variantlari bilan 25 ta), kelasi zamon – 15 ta (variantlari bilan 19 ta) qoʻshimchani tashkil etdi. Demak, zamonning oʻzida jami 49 ta (variantlari bilan 66 ta) shakl mavjud.

Darslik va oʻquv qoʻllanmalarda yuqoridagi shakllarning yarmi ham keltirilmaydi. Negaki, asosan, sintetik shakllar kiritilgan. Toʻliqsiz feʼllar bilan shakllangan zamon qoʻshimchalari deyarli olinmagan. Lugʻatga barcha toʻliqsiz feʼllar bilan hosil qilingan zamonlar kiritilgan. Juda kam ishlatiladigan shakllarni ham toʻliqroq qamrab olishga harakat qilingan. Chunki keyinchalik ushbu lugʻatlar asosida tuzilgan morfoanalizatorlar har qanday matnning morfologik shakllarini aniqlay olishi kerak. Morfoanalizator faqat yozma matn emas, ogʻzaki nutqni ham tahlil etishga moʻljallanadi.

Lugʻat tuzishda shunday holatlarga duch kelindiki, zamon qoʻshimchalari bilan, umuman, boshqa qoʻshimchalar bilan ham yasaladigan baʼzi soʻzshakllar tilimizning morfologik qonuniyati asos-



sida hosil qilingan boʻlsa-da, hali deyarli ishlatilmagan. Lugʻatga bunday shakllar ham kiritildi. Chunki bu lugʻat ham yozma, ham ogʻzaki nutqni, shuningdek, ijtimoiy tarmoqdagi yoki baʼzi hududlardagi nutqiy holatlarni ham tahlil qilish uchun maʼlumotlar ombori vazifasini oʻtashi lozim. Masalan, *kiyyapti emishmiz, kiyyapti emishsiz(lar), kiyyapti emish(lar), kiyyaptimishman, kiyyaptimishsan* kabi.

Yana shunday holatlar borki, shaxs son-qoʻshimchalari zamon hosil qilgan toʻliqsiz feʼldan oldin keladi: *kiyyapman ekan, kiyyapsan ekan, kiyyapmiz ekan* kabi (kam qoʻllanadi, lekin tilimizda mavjud). Ushbu zamon qoʻshimchalaridan koʻrinadiki, faqat shu shakllardan feʼlning 66 xil koʻrinishi hosil boʻladi.

Soʻngra har bir zamon qoʻshimchasidan keyin shaxs-son qoʻshimchalari birlitirildi. 66 shaklga 6 xil shaxs-son qoʻshimchalari birlitirilishi natijasida 396 xil koʻrinish yuzaga keldi. Keyin jarayon davom ettirilib, mayl qoʻshimchalari, vazifa shakllari, baʼzi murakkab shakllar birlitirildi. Vazifa shakllarining egalik va kelishik qoʻshimchalarini qabul qilish imkoniyatiga qarab ular ham shakllantirildi. Soʻngra boʻlishsiz shakllarining -ma, yoʻq, emas vositalari yordamida feʼlning inkor shakli hosil qilindi. Natija shunday boʻldiki, zamon, mayl, shaxs-son, boʻlishli-boʻlishsizlik, vazifa shakllarining aniq nisbatda kelish koʻrinishlari variantdoshlari bilan 1702 xil (variantdoshlar hisobga olinmaganda 1451 xil) morfologik shaklni hosil qildi.

Ushbu shakllarni boshqa feʼllar ham turlicha qabul qiladi. Har xil feʼl nisbat, zamon, mayl, shaxs-son, boʻlishli-boʻlishsizlik, vazifa shakllarining valentlik imkoniyatlariga koʻra turli nisbatga bogʻlanadi, yaʼni 4-5 ming shakldan 30–35 ming morfologik shaklgacha koʻrinishni hosil qiladi.

Oʻzbek tilining morfologik lugʻati shunday koʻrinishda boʻladi: birinchi ustunda feʼl shakli, ikkinchi ustunda uning grammatik shakllari pozitsiyasi, uchinchi ustunda shu grammatik shaklning formulasi keltiriladi. Grammatik shakllarning tartibi va ular orasidagi nol shakl batafsil koʻrsatiladi; uchinchi ustundagi formulada esa teg, yaʼni grammatik shaklning belgilarini ifodalangan boʻladi.

Oʻzbek tili morfologik lugʻatining bunday koʻrinishi kelajakda oʻzbek tili milliy korpusi uchun morfologik teglash dasturi hamda tabiiy tilga avtomatik ishlov berish dasturlari: morfologik analizator, semantik analizator, orfokorrektorlar ish-

lab chiqishda lingvistik taʼminot hamda teglar tizimi sifatida xizmat qiladi.

Yuqoridagi tavsiflangan “kiy” feʼlning 29 ming morfologik shakli koʻmakchi feʼl bilan ham birika oladi. Buning uchun 28 ta koʻmakchi feʼlning 34 shakli (varianti bilan 36) borligi aniqlandi. Keyin koʻmakchi feʼllarning 2 talik, 3 talik qoʻllanuvchi 200 dan ortiq koʻrinishidan baza tayyorlandi. Ulardan 19 koʻmakchi shaklni “kiy” feʼli qabul qila olishi aniqlandi. Avvaldan tayyorlangan 29 ming shaklga birlitirib koʻrilganda oʻrtacha har bir koʻmakchi shakldan 15 ming shakl hosil boʻlib, bir qismida gʻalizlik paydo boʻldi. Demak, 19 x 15000 = 285000 morfologik shakl yuzaga keldi. 29 shakl 285 ming shakl bilan birga 314 ming grammatik shaklni hosil qiladi.

Demak, birgina “kiy” feʼl 300 mingdan ortiq koʻrinishga ega. Lugʻat tuzuvchilari hali ularga yuklamalarni qoʻshishmagan. “Kiy” feʼli 300 ming shaklining har biri, deylik, -mi soʻroq yuklamasini oladi. Demak, 300 ming shakl 600 mingta boʻladi. Shunday qilib, oʻzbek tilidagi bir feʼlning 300 ming shakli 20 dan ortiq yuklamani qabul qiladigan boʻlsa, natijaviy hisob-kitobni oʻzingiz chiqaravering. Koʻzlaringizga ishonmayapsizmi? Ishonavering, buni statistik tadqiqotlar koʻrsatmoqda. Oʻzbek tili ana shunday behad cheksiz imkoniyatga ega. Demak, “Oʻzbek tilining morfologik shakllari lugʻati” yuzlab jildli ulkan kitoblardan iborat boʻladi.

Bu lugʻat nima uchun kerak?

Feʼl shakllarining morfologik lugʻati, dastlab, bir feʼlning turli morfologik shakllarini qamrab olgan va quyidagi maqsadlarni koʻzda tutadi:

- oʻzbek tilining grammatik boy imkoniyatlarini koʻrsatib berish;
- zamon, shaxs-son va maylniy nisbat, tasdiq-inkor, vazifa shakli, koʻmakchi feʼl bilan hosil qiladigan pozitsiyalarini kuzatish uchun manba tayyorlash;
- soʻzshaklning morfem tarkibini ajratib berish;
- soʻzshaklning morfem tarkibi tuzilishining modelini ishlab chiqish;
- taʼlimiy korpus, milliy korpus, avtomatik morfoloqik analizatorlar, tarjima, avtomatik imloni tekshiruvchi dasturlar uchun lingvistik baza tayyorlash.



Hujjatli hikoya

Yashasin, Latif Mahmudovich! Yashasin, ustozimizning sanoqsiz "ishkom-mish" dala hovlilari, bitmas-tuganmas yumushlari!

Universitetimizning boshqa fakultetlarida qanaqa, bilmadim-ku, biroq bizning o'zbek filologiyasi fakultetida shunaqa! 4-kursga eson-omon yetib keldingmi?! Yashavor, o'g'il bola! Endi... Shu o'g'il bola ekanligini yil davomida navbati bilan oqlaysan-da. Qanday qilib?! Odatdagiday! Dastavval, starosta-jonkuyarimiz "Chet el adabiyoti" kafedrasiga chaqiriladi. To'ra ustoz Latif Mahmudovich savlat to'kib o'tirgan bo'ladi. Ostonadayoq salom beradi jonkuyarimiz. Alik olingach, ustoz xos kotibalari Nodira Ibodovna "Bizni xoli qoldir", mazmunida tomoq qiradilar. Eshik qoqib kelguncha boshdan-oyoq razm solib chiqqan ustozning ko'ngillari to'lsa, jonkuyarimizni yonlariga imlaydilar. Gapning indallosi boshlanadi. Kibrga chayilgan nigohlar sir bermaydi, oladi! Salmoqdor, shivirlagandan ikki-uch parda balandroq ohangda subbatning o'chog'iga o'tin qalanadi. Ustoz bo'lar-bo'lmasga tovushlarini ko'tarmaydilar. Notiqlikning jamiki nazokati shu zayl qarshilashda ishga solinadi.

– Qaysi viloyatdansen, bolajonim?

Jonkuyarimiz bunday shirin lutfdan erib ketgudek holatga tushadi. Erimasinmi, vaqtida respublikaning birinchi rahbariga o'nlab yillar chet el safarlarida doimiy hamroh sanalgan zotning qarshisida turibdi. Ilk uchrashuvdanoq "bolajonim", deya erkalatildi. Eriydi-da!

– Qashqadaryodan! Kitoblikman!

– Hmmm, Qashqadaryodan, kitoblik. Bolajonim, shoir Muhammad Rahmonga yaqinmisan, yo Muxtor Shapsan?

– Ikkovlariga ham yaqin joydanim, – deydi jonkuyarimiz. – Muhammad Rahmon palandarlik. Shapsanov domla Makridan!

– Bilarkansen! – tasdiqlaydi Latif Mahmudovich. – Ammo Muxtor Shapsan juda uddaburon chiqdi. Indiraning ko'nglini iydirdi. Hindiston sarmoyasiga maktab qurirdi. Qandini ursin! Ustoz asl muddaolarini tag'in salmoqning oltin tarozisiga o'lchab ko'radilar. Hisobdan adashmagan ma'qul-da...

– Bolajonim, seni ne umidda chorlaganimni bilasanmi?

Jonkuyarimiz bosh irg'aydi. Sadoqatli shogird, mustahkam tirgak qiyofasiga kiradi. Avval guruh rahbari, keyin yuqori kursdagi o'ziday jonkuyarlar tomonidan astoydil o'rgatilgan gaplar tillariga ko'chadi.

– Bilaman, – deydi sertavoze. – Tashvish kimda bo'lmaydi, ustoz?! Onda-sonda ozgina yumushingiz chiqib qolarkan. Mutolaadan chalg'ib, miyaga dam bergan kunlarimiz oyoq-qo'lning chigilini yozsak, yomonmi?! Hasharga chaqirsangiz, bormasak uyat bo'lar.

– Barakalla, – deydi Latif Mahmudovich. – Mahmud Qoshg'ariyning "Devon"ini qo'ldan qo'yma. Ajab xazinaga yo'lqasan! "Tirishqoqning labi yog'liq, erinchoqning boshi qonliq". Bolajonim, tirishqoq bo'lsang, yorug'likka chiqasan! E'tiborimizga tushasan! Qo'llasang, qo'llanasan! Xullas, gap

bunday. Sen navbati bilan guruhingdagi yigitlarni biznikiga jo'natishingni bil! Bitta-yarimtas tixirlik qilsa, indama! Toshtemir bolam bor-ku, turkolog. Ana o'shanga shipshitsang, eplaydi!

Nodira Ibodovna tamannosi tortib kiradi. O'rindiqlarni tartibga solganday ko'rsatadi o'zini. Bu "Hey bola, topshiriqni olding. Endi ketaver!", degani. Jonkuyarimizga ruxsat tekkach tashqariga oshiqadi. Hali eshikka yetmay, ustozning suyumli Toshtemir bolasi, fakultetning "informbyuro"si – Toshquloqqa to'qnashib ketguday bo'ladi. Toshquloq nimasiga keriladi desam Latif Mahmudovichni orqa qilarkan-da, tushunganday bo'ladi jonkuyarimiz. "Hayf

Olovday gil...

senga, yigitlik, shu dargoh!"

Ko'pga kelgan to'y-da. Mo'mindan so'ray desam, necha kunki qorasini ko'rsatmaydi. Tavakkal, ikkimizni shanba kuni navbatga yozdirdim. Bilaman, u allaqachonladi Latif Mahmudovichning xonadonda bir necha bor bo'lgan. Oshkor aytmasa-da, nimalarnidir rejallashtirib yurgani aniq. Domlani fakultet yo'laklarida poylab, ro'baro' kelganda salom-alikni quyuy qilganini ham ko'rishibdi. Xullas, o'n besh yigit hafta kunlarini o'zimizga mos taqsimlab oldik. Kursdoshlarimiz to'rtinchi kursda o'qishdan haydab ketmaslik uchun nomlarini jonkuyarimizning ro'yxatiga tirkashdi. Latif Mahmudovichning tanasi sutga chayilgan qizining jamoliga ishqibozlar ham topila qoldi. Bu yog'i yigitlikning shabob ayyomi-da, "Gul bir yon, chaman bir yon".

Navbatimiz yetgan kuni men noilojlikdan, Mo'min zo'r ishtiyok bilan yo'l tortdik. Qaniydi, hamrohimning chakagi tina qolsa. Gaplariga qaraganda, Latif Mahmudovich Toshkentning tilga tushgan "Ganga" do'koni orqasidagi hovlida, yozuvchi Pirimqul Qodirov bilan qo'shni bo'lib yasharkan. Tunov kuni ko'chadan o'tib ketayotgan adib bilan qo'shqo'llab ko'rishganmish. Latif Mahmudovich uridan qolayozgan imoratlarini buzdirib, Jizzaxning eng oldi ustalariga "sovre-menniy", ovro'pocha uslubda koshona tiklatirayotganmish.

Domla qurdirayotgan koshona Mo'minning tilida doston bo'ldi. Necha bor chalg'itdim ham, befoyd. Ko'r ushlaganini, kar eshitganini qo'yamas-mish. Mening dardim – erantgi mitingga qatnashish! Oxiratlari obod bo'lgan bo'lsin-u, G'afur G'ulom bir zamonlar zap topib aytgan ekanlar-da, "Men nima deymam-u, qo'bizim nima deydi?"

– Qurdirda nima bo'пти? – dedim axiyr sabrim chidamay. – Bitta xonasiga sen kelib o'tiramiding? Menga qolsa, bugun nima yumushni ko'rsatishsa, barini bajaramiz! Ertaga Qizil maydonda davlat tiliga bag'ishlangan navbatdagi miting bo'ladi. Ko'rgandirsan, Vuzgorodokda talabalarni namoyishga chorlab, e'lon osilmagan simyog'och qolmagan. Nima bo'lsa bo'lsin, mitingga boraman! Sen bilganingni qil!

– Biram o'rsan-ey, Muzaffar, – gap

bo'linganidan oshkor e'tirozga o'tdi Mo'min. – Senga nima zaril?! Har yakshanba ellik mingdan oshiq odam olo-mon bo'lib, Qizil maydondan Vuzgorodokkacha piyoda kelasizlar. Qani endi bu namoyishlarning natija bersa. Shunday katta tilchi domlarning o'zlari panalab, pisib yurishibdi-ku?! Vuzgorodokda tili-mizga davlat tili maqomi berilsin, deb o'zlaricha miting tashkil qilgani uchun toshhovuzlik Bahodir Karimov, qash-qadaryolik Yusuf Ziyodov, Gulnoza Ernazarova, Rustam Musurmonov degan talabalarining nomlarini raportga tirkab, Toshquloq universitetdan haydatish uchun Rishod Nabiulling kiritganmish. Ayt-chi, kim ularning taraffarini o'lyap-

ti?! Hech kim! "Davlat tili maqomi" emish. Ko'zingni och, og'ayni! Hozir senga Latif Mahmudovichning koshonasini ko'rsataman. Chala holidagi og'zing ochilib qoladi. Ana shu puldor, nomdor, unvonli domlalar talab qilsalar yarashadi maqomni! Biz kimmiz? Bu yog'ini so'rasang, qirg so'm stipendiya oladigan talabalarimiz...

– Bilmasang gapirma! – dedim Mo'minga. – Tilimizga maqom so'rab kurashayotgan tilshunos olimlar, ziyo ahli juda ko'p. Baxtiyor Isabekov, Ibrohim Haqqul, Ulug'bek Dolimov, Naim Karimov, Miraziz Mirtotiyev, Norboy Xudoyberganov, Gulchehra Nurullayeva, Abdulla Oripov, Erkin Vohidov, yosh shoirlar Bahrom Ro'zimuhhammad, Salim Ashur... Eh-he, mard kurashchilarimiz ozmi?! Ular duno hamjamiyatiga tilimiz borasida Moskvaniy O'zbekistonga nisbatan zo'ravon siyosat yuritayotganini allaqachon tushuntirib bo'lishgan!

Mo'min gaplarimga parvo ham qilmadi. O'sha zaylda, o'z ohangida davom etdi.

– Kun kelib, Mo'min aytuvdi-ya deysan, Muzaffar, qachondir sen aytgan maqom ham berilar tilimizga! Lekin o'sha kunlar nasib etsa, talabalarining soyasida panalagan nomdor tilchilar, ularning Toshquloqday shogirdlari sayrab qolishadi. Minbarlarni musthab, biz tilimizning maqomga loyiqligi uchun kurashganmiz, deydishadi! Qani, o'shanda yuzlariga tik boqib, yolg'on, deb ko'r-chi!.. Ovozini birpasda bo'g'ib qo'yishadi. Latif Mahmudovich kecha aytdilarki, Boltiqbo'yidagi mustaqillik uchun kurashlarning debo-chasi, ularning tiliga davlat tili maqomini berishdan boshlanganmish. Xudo ko'rsatmasin, dedilar, til mojarosidan Turkiston muxtoriyatining ifori kelayotganmish. Agar tilimiz maqomga loyiq topilsa, O'zbekistonda mustaqillik e'lon qilinishiga bir qadam qolarmish.

Yengildim. Mo'min haq edi. Bekorga Latif Mahmudovichnikiga qatnamagani biliniq qoldi. Demak, domlarning o'zi ham o'zbek tiliga Davlat tili maqomini berilishi tarafdori. Faqat hukumatdan olgan unvonlarining haqqi-hurmati uchun sukat sayqalayotgan bo'lib chiqadi. Imoratlar solishi ham bejiz bo'lmasa kerak. To'g'ri-da, bejo qaynayotgan qora qozondan yiroq bo'lgan afzal. Otashi

kuydirda, qorasi yuqadi.

– Bizga nima uchun Mahmud Qoshg'ariyning birgina asarini buncha tiqishtirishlarini bilasanmi? – kutilmaganda so'rab qoldi Mo'min.

Yelka qisdim. O'ylab ko'rmagan ekanman.

– Nimaga bo'lsa?

– O'rtoqjon, – dedi Mo'min faylasuf qiyofasiga kirib. – Moskva "Aslida, ota-bobong ko'chmanchi o'tgan. Echkilug'idan ortsa shaharsozlik, davlat ishlariga bir navi qarardi. Topgani marsiya, bitiktosh, mavsum-marosim qo'shiqlari. Uniyam bir varaqqog'oz topolmay, bolasiga yodlatib yurgan", deb ta'na qilayotganday tuyulaveradi menga.

Jim qolishni afzal bildim. Tortishay deymam, katta ko'chadan o'tib-qaytayotgan odamlardan uyalamam. Mo'minni o'zgartirish mushkul. To'g'risi shuki, Latif Mahmudovichning Nodira Ibodovnadand tortib, barcha shogirdlari siam egizaklariga o'xshaydilar. Qo'shaloq vujud, tana bitta. Aql esa ustozniki. Uning asosini Mahmud Qoshg'ariyning devoni tashkil etadi.

Fakultetimizda domladan hadiksirab, quloqqa ayliladigan latifa ham to'qilgan. Emishki, Chiroqchining Boyli qishlog'idan Bahodir Tursun degan yigit o'qishga qabul qiliniydi. Saboqdoshlari uni imtihon qilishibdi. Qaysi adibning tarjimai holini so'rashsa, shovvoz tug'ilgan yili, faoliyati, ota-onasining kasbi-korigacha aytib berarmish. Lol qolmay iloj yo'q! G'uzorlik Chorsanbi deganining quvligi tutibdi. "Latif Mahmudovichning otasi kim bo'lgan?", deb savol tashlabdi. Boylilik, turgan gapki, buni kutmagan. Chiroqchiliklar dangalchi, tikka gapli bo'lishadi. Bahodir nojo'ya savol berguvchi Chorsanbiga ukkiqarash qilibdi. Keyin kiprik qoqmay, "Latif Mahmudovich Mahmud Qoshg'ariyning o'g'li bo'ladi. Pensiya-ga chiqqach, kafedra mudirligini o'g'liga tashlab ketgan. Ishonmasang, borib o'zlaridan so'ra", dermish.

– Muzaffar, – dedi Mo'min bahsda yengilganimni sezib. – Bilasanmi, shu kunlarda o'zi boshqacha bo'lib yuribman. Bo'ldi, oshna. Til maqomi bilan unvonlarni ministrik kurslarini egallab olganlar shug'ullansin. Biz o'qishimizdan qolmaylik! Aytam ishonmaysan. Kecha Gulchehra bilan qattiq arazlashib qoldik. Men uning otasini Toshkentda qolsam tirgak bo'ladi, desam... Senga o'xshab haqiqatchi ekan. G'irt mirquruq...

– Bu nima deganing? – Mo'minga tik qaradim. – Mening nima aloqam bor, sening ishq dostoningga?!

– Ey oshna, jahling chiqadida to'g'ri gappa. Mahmud Qoshg'ariy o'qimaysan-da! Sen sinchiklab o'qi! O'n birinchi asrda yashagan jafokash olim to'plagan ganjlarining mag'zini chaq". "Ho'kizning oyog'i bo'lguncha, buzoqning boshi bo'lgan yaxshiroq!" Ko'chmanchi ota-bobolarimiz bundan to'qqiz asr oldin shunaqa qo'shiqlar to'qishgan ekan. Xullas, og'ayni, men Gulchehradan kechdim! Tamom – ayriqlik! Latif Mahmudovichning yakka, erka kuyovi bo'lmoqchiman. Buzoqning boshi bo'laman!..

Subhatimizdan endi chinakamiga

fayz ko'tarildi. Mo'minning kechagacha fakultetimizda mashhur ishq dostoni menga o'ta bema'ni tuyuldi. Bilganini qilsin! Ichkuyov-kuchuk kuyov, deydilar bundaylarni. Baland oxurni istab qolibdilar-da, buzog'imiz?! Ummonda dengiz otchalari degan bir qarich keladigan jonzoqlar yasharkan. Erkagi o'ziga munosib juft topsa, so'nggi nafasigacha modasining dumidan ushlab yurarkan. Biz odamlar, bir qarichlik jonzoqchalik sevolmaymizmi justimizni?!

Yo'ning bu yog'iga Latif Mahmudovichning hovlisiga yetguncha jim ketdik. Ochig'i, nima deyishga ham hayronman. Ko'z oldimga universiadalarda bellashib, respublikada oliy o'rinnagallaganimizda yig'lab yuborgan Gulchehra qayta-qayta kelaverdi. Bir tomondan juda yaxshi bo'пти. Mo'minday bedavo unga boshdanoq nolo-yiq edi. Toshkentlik kursdosh qizlarimiz "Dugonamizga chirmovuq ilashgan. Sassi qalafday chirmovuq. Ustiga ustak tepakal", deb kulib yurishardi. Ajab bo'пти!

— Hovlida ish juda ko'p, — ko'cha boshida qayta ogohlantirgan bo'ldi Mo'min. — Joningni jab-borga berma. Quyosh botguncha yag'iring chiqib ketmasin. Endi tushungandirsan, nimalar qilib yurganimni?! Yotoqxonada tunamagan kunlarim Latif Mahmudovichnikida qolardim. Ustalariga dastyorlik qildim. Domlaning xotini o'ta aqlli ayol. Uch kunga qolmay niyatimni payqadi. "Latif Mahmudovichning etagidan mahkam tutsangiz, kam bo'lmaysiz", dedi. Ko'ngillariga qo'l soldim. Tavakkaliga qizlarining qo'lini so'radim. Typopukni Farg'onaga jo'natmas ekanlar. Ahdlashdik. Toshkentda qolishga qasam ichdim! Yo ko'hi balanda yasha, yo shahri azimda! Toshkent turganda Farg'onada nima bor?! Xullas, uzoqdagi quyrugdan umidimni uzdim! Bir menmi, ustoziga ichkuyov bo'lgan?!

— Men ertaga mitingga borishim kerak!

— Boraver! — dedi Mo'min mening kafilimni olganday. — Ichkarida o'lib-tirilib ishlama. Had-dingni bil. Domlaning ayoli meni surishtirib qolsa, "krutuy bola", desang bo'lgani. Bir nimalar deb qovun tushirib qo'yagin, tag'in. Og'aynim deb, ich sirimni aytdim-da! Ustalar ertaga dam olishadi. Kecha kafedrada uchrashganimda Latif Mahmudovich ogohlantirgandilar. Chorvoqqa oilaviy ketisharkan. Men ham borarkanman. Dachani o't bosib yotganmish.

Birov aytsa, ishonmasdim. Qoyil qoldim. Bir xonada ikki yil yashab, o'zimni allomayi davron, Mo'minni esa landovuri jahonga chiqarib yuraveribman. Odam bolasini ko'nglida nima bor, bilish qiyin ekan! Odaming ko'ngli tilsin.

Kechgacha anchagina ishlarni saranjomladik. Mo'min necha bor o'zlariga eshittirmay, ustalarini bo'ralab so'kdi. Inshooting bitishi cho'zilayotganidan astoydil ranjidi. Kech kirdi. Yomg'ir sarda qolgan bir qop sabzini katta-kichikka ajratib, saralayotgan edim. Mo'minning og'zi qulog'ida, oldimga keldi. Bir muddat tepamda serrydi.

— Ertangi mitingni nima qildik, ishboshi?! — dedim boshimni ko'tarmay.

— Latif Mahmudovich Chorvoqqa borishdan aynib qolmasmikan?! Aynimaydilar! — dedi Mo'min tantanavor ohangda. — Chorvoqqa chiqish bu bir bahona. Aslida, tabiat qo'yinda dam olishmoqchi. Qizlariga qimmatbaho biror narsa hadya qilishim kerak ekan. Domlaning xotinlari men tarafl! Mushkulimni oson qildilar. Tilla bilakuzuk sotib olibdilar. Menga yashirinch ko'rsatdilar. Shuni berishimni aytdilar! Hammaga bildir! Nasib etsa, kuyovnavkarlarga o'zing bosh bo'lasan! Karnay-sumay chaldirib, bu hovliga "O'tkan kunlar"dagi Otabekday kirib kelaman, og'ayni! Ertaga qayerga borsang, boraver! Seniyam g'amingni yeb qo'ydim. Mabodo, Toshquloq dushanba kuni seni tergab qolsa, Chorvoqqa edim, deyaver! Latif Mahmudovichdan o'lsayam so'rashga botinolmaydi.

Dushanba kuni fakultetimiz talabalarining paxta terimiga jo'nashlari e'lon qilindi. Mashg'ulotlar to'xtatildi. Universitetdan qaytayotib, bosh korpus oldida Toshquloqqa to'qnash keldim. To'rt-besh quyi kursdagi talabalarga odaticha po'pisa qilayotgan ekan. Burilib ketolmadim.

— Ana, yana bitta "faol", — dedi meni ko'rsatib. — Kecha to'rtinchi qavatdagi oynavand zalda edik, — dedi bosh korpusga ishora qilib. — Sen bola, uchinchi marta "qora ro'yaxat"imizga tushding. "KGB"chilarning videosigayam. Mitingda qatnashding. To'g'rimi?

— To'g'ri! — dedim. — Latif Mahmudovichnikiga ham bormadim! Ko'rgansiz-ku, kecha ellik ming kishidan oshib ketdik! Universitetimizning hay-hotday sahni bulbulning uyasidek torlik qilib qoldi! Davlat tili maqomini so'rab, Toshkent shahri bo'yab haq yo'l — xalq yo'lidan piyoda yurib o'tdik! Xalqni milliy o'zlikni anglashga chaqirdik! Xalq bezovta! Ichiga o't tushgan! Xalq olovli yilni boshidan kechiryapti!

— Hammangni jazolash kerak! Senlar Sho'ro Ittifoqini ko'rolmaysanlar! Milliy mahdudsanlar!

— Latif Mahmudovich aytganlaridek, Qoshg'ariyni o'qing, Toshtemir aka, — dedim kesatib. — Tilshunos bobomiz yirtiq chopon, ilma-teshik kovushda, bitta nonga pullari yetmasa ham, o'z zamonlarida turkiy tilning maqomi uchun kurashgan ekanlar. Chin olimlar asli shunaqa bo'ladi. Donishmand bobokalonimiz olim qiyofasidagi johillarga qarata "Tulki o'z uyasiga qarab ulisa, qo'tir bo'ladi", deb yozib ketgan ekanlar. Amin bo'lingki, hali shunday kunlar keladi. Bizga, shakkok sanayotgan namoyishchilarga tasannolar aytasiz! Men juda ko'p o'ylayman, tayinli javobni esa hech topolmayman. Aqlim yetmaydi. Nega siz, fakultetimizdagi nomdor aspirant, bo'lajak o'zbek tilshunos olimi, tilimizga davlat tili maqomi berilishiga qarshisiz?!

Toshquloq sovuq tirjaydi. Javobi turqidanda sovuq bo'ldi.

— Moskva bunga yo'l qo'yamaydi! Senlarning ra'yingga qarasa, O'zbekistonni mustaqil davlat, deb e'lon qilishdan ham toymaysanlar!..

Ertasi kuni Mo'min xonadoshimni, Toshquloqni Toshkentda tashlab, Sirdaryoga jo'nab ketdik. Gulchehra ham subutsiz oshiqlari bisyor shahardan bir muddat olisda bo'lishni ma'qul topdi. Oddiygina terimchiga aylandi. Dardini cho'ldagi yantoqlar ustiga to'kib kelgisi keldi, chog'i.

Oradan hech qancha vaqt o'tmadi. Darbadar mezon shamollari ucha-ucha, axiyri yalang'och chanoqlarga o'ralib, qo'nimgoh topganday bo'ldilar. Ostonadan ufqqa paxta ekilgan cho'ldamiz. Saharning uyqusi boldan shirin topilgan kezlar. Paxtaga ko'ngil ketib intizor, intiq kutgan kunimizning ishvali tongi otganini sezmay qolibmiz.

Terim chog'lari bizga rahbar etib tayinlangan fan nomzodi Yormat Tojiyev tong sahardan shiyonimizning taxta eshigini taraqlatib ochdilar. Chiroqlar qarsillatib yo'qildi. Bilamizki, domla hozir hazil-chiniga olib, ko'rpamizni tortqilaydilar. Qaltis, o'g'il bolalar tushunadigan askiyalarning yangisidan bo'ladi. Boshimizni burkab, o'zimizni uxlaganday ko'rsatib, pisib yotaverdik. Yo'q, folim yolg'on chiqdi. Ustoz taraddudda edilar. Bir muddatlik tinimdan so'ng, kecha tungi eng so'nggi axborotda o'zbek tiliga Davlat tili maqomi berilgan rasman e'lon qilinganini bor ovozda, hayqirib aytdilar. Xushbaxt tongda uyquga balo bormi?! Shiyonimiz azondanoq us-tozning qutlug' xabaridan to'kilib ketguday zirilashga tushdi...

Luqma

Gapirishni ham o'rgatingizlar!

Sirk tomoshalarini yaxshi ko'raman. Ayniqsa, hayvonlar ishtirokidagilarini: olov halqadan sakrayotgan yo'lbars, velosiped haydayotgan ayiq, raqs tushayotgan otlar... Qoyil qolmay iloj yo'q. Ongsiz maxluqlarga hatto ba'zi odamlar ham bajarolmaydigan tryuklarni o'rgatganlarga beixtiyor tasanno degim keladi.

Ishonmasangiz ham aytayin, bir kuni televizorda qarg'aning gapirganini ko'rsatishdi. Voajab! Hayratdan og'zim ochilib qoldi. Men 15 yil ona tili va adabiyotdan ta'lim olib, hali beri ikki og'iz jumlani chiroyli qilib gapirilmayman-u, bu qarg'a qanday qilib o'rgandi ekan? Rosti gap — 9 yil maktabga, 2 yil repetitorga bordim, hozir universitetda til va adabiyot bo'yicha o'qi-yapman, lekin nutq haminqadar. Agar o'sha qarg'a gapirishni o'rganishga shuncha yil sarflasa, birorta ko'rsatuvga boshlovchi bo'lib ketardi-yov.

Hozir unga havas qilib o'tirganim bilan sinfdoshlarim meni ancha gapga chechan deb biladi. Birortasining tug'ilgan kuni bahonasida yig'ilib qolsak, darrov: "Sen tilchisan-ku, gap bilasan. Hammamizning nomimizdan bir ikki-og'iz tabriklab qo'y", deya so'z beradi. Yaxshiyam, uyimizga mehmon kelganida choy-poy tashiyotib, kattalarning "tost"laridan bir-ikkita gapni ilib ol-ganim, bo'lmasa sharmandam chiqishi tayin edi:

"Ko'p, nima deymiz endi... Minglarga kir, jo'ra. Dasturxon-ing eniga ham, bo'yiga ham o'saversin..."

Eng yomoni, to'ylarda ham bu ulug' vazifani menga yukla-shadi. Birga tepkilashib katta bo'lgan jo'rangni shunday baxtli kunida chiroyli qilib tabriklayolmasang, o'lgan ekansan-da, de-yishingiz mumkin. Nima qilay, mikrofon qo'limga tegishi bilan aytmoqchi bo'lganlarim birdan qaygadir g'oyib bo'ladi. Tag'in, bu holida qanday qilib universitetda o'qiyapti ekan, deb o'ylamang. U-bu narsani bilarmizki, qabul qilishgan. Ishonmasangiz mana:

"Ikki yoki undan ortiq sodda gapning mazmun, grammatik va ohang jihatidan birikuvidan tuzilgan gap qo'shma gap deyiladi: Eshik sekin ochildi-yu, Qalandarovning yuzi ko'rindi.

Sodda gap tarkibida bitta ega va kesim birligi ishtirok etsa, qo'shma gap tarkibida ikki va undan ortiq ega va kesim birligi qatnashadi. Qo'shma gap tarkibidagi sodda gaplar o'zaro bog'lovchilar, yuqalamalar, ko'makchilar va fe'l shakllari hamda ohang orqali bog'lanadi.

Mazmun munosabati va bog'lovchi vositalarining qo'lla-nishiga ko'ra qo'shma gaplar 3 xil bo'ladi: bog'langan qo'shma gaplar, ergash gapli qo'shma gaplar va bog'lovchisiz qo'shma gaplar..."

Yana davom etaymi? Istasangiz, soatlab bu kabi qoidalar-ni aytib berishim mumkin, lekin to'y universitetdagi amaliy mashg'ulot emas-da.

Oxiri buning ham bir yo'li topildi. Xuddi rahbarlarga o'xshab aytadigan gapimni qog'ozga yozib, o'qib beradigan bo'ldim (odamlarning ko'ziga qarab, ikki og'iz gapni eplab gapirolmasam-da, biror joyga boshliq bo'lib ketsam, ajablanib yurmang)...

Agar gazetaga chiqquncha shu bir parcha maqolamni mu-harririmiz "lolazor" qilib berganini, "Endi imloviy xato qilmay-man, boshqa qaytarilmaydi", deb minginchi marta uzr so'raga-nimni bilmaganingizda edi, "Gapirolmasam-da, yozishni qotirib qo'yaman", deya kerilgan bo'lardim. Afsuski, siz juda ziyaksiz (Shunda ham savodxonlik borasida maqtanishga asosim bor. Ma-salan, telegramdagi "sinfdoshlar" guruhida boshqalarga qaragan-da xatosiz yozaman).

Xullas, o'zingiz yaxshi bilasiz, menga o'xshaganlar jamiya-timizda to'lib yotibdi. Maktablarda ona tili fanining o'qitilishi-dan asosiy maqsad — o'quvchilarda yozma va og'zaki nutqni rivojlantirish. Unda biz nega bundaymiz? Yo o'sha ongsiz qarg'a bizdan uquvlroq, yoki til ta'limi maqsad qolib, boshqa joylarda o'tlab yuribdi.

“Ma'rifat” repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 7-varianti

ONA TILI

1. Bir tovush o'zgarishi bilan ma'nosi butunlay farqlanadigan so'zlar miqdorini aniqlang.

- fol, abzal, shox, daraxt, saxiy, juda, tanbur, borliq
A) to'rtta B) beshta C) oltita D) yettita

2. To'g'ri yozilgan so'zlar qatorini belgilang.

- A) material, tabiat B) orzuyim, mavzuying
C) mavqe, manbai D) ma'sul, a'lo

3. Quyidagi juftliklar so'zning shakli va ma'no munosabatiga ko'ra qanday turiga mansub?

yod – yot, bop – bob, xalos – xolos

- A) omonim B) antonim C) sinonim D) paronim

4. Birinchi xodim bu yer aholisini sinchiklab o'rganadi va xo'jayiniga axborot berdi: “Bu yerdan bizga hech qanday foyda yo'q, chunki nufusi juda qashshoq ekan, yalangoyoq yurarkan. Topgan foydamizdan ham judo bo'lmaylik”.

Ushbu gapdagi ajratib ko'rsatilgan so'zning lug'aviy ma'nosi to'g'ri berilgan javobni aniqlang.

- A) mavqe B) aholi C) madaniyat D) yashash

5. Qaysi javobdagi yasama so'zlar tarkibi “asos+so'z yasovchi qo'shimcha+so'z yasovchi qo'shimcha” shaklida kelgan?

- A) tinchlik, bilimli B) o'chirg'ich, sevinch
C) mehnatkash, qaynatma D) vatanparvar, quvonch

6. Quyidagi sifatlardan nechitasi makon-zamon sifatlarga mansub?

uzun, kuzgi, qisqa, keng, baland, tungi, bultur, xursand, quvnoq, g'amgin, sho'x, kamtar, qishki, kechki.

- A) yettitasi B) oltitasi C) beshtasi D) to'rttasi

7. Maqsad-sabab ravishlari berilgan javobni aniqlang.

- A) astoydil, birin-ketin B) qisman, bexosdan
C) atayin, qat'iyan D) noilojlikdan, jo'rttaga

8. Qaysi gapda ismlarning munosabat shakllaridan faqat bitta turini qabul qilgan sifatosh qatnashgan?

- A) Mulla bilganin o'qir, Tovuq ko'rganin cho'qir.
B) Boqqaning ikki echki, O'shqirganing yer tebratar.
C) Chin do'st tug'ishganingdan afzal.
D) Bilganingni eldan ayama.

9. Polvonning qo'li kuch bilan o'ziga tortar, ammo bir qarich ham oldiga siljitilmasdi. (Said Ahmad)

Ushbu gapda yordamchi so'zlarning qaysi tur(lar)i qatnashgan?

- A) ko'makchi, bog'lovchi, yuklama
B) ko'makchi va yuklama
C) yuklama va bog'lovchi
D) faqat bog'lovchi

10. Qaysi gapda aniqlovchi holga bog'langan?

- A) Tadbirkor insonning ishlariga havasining keladi.
B) Mehnat faxriylari bilan yangi bog'da uchrashdik.
C) Ilg'or ishchilarga mukofotlar topshirildi.
D) Bahaybat samolyot yerga ohista qo'ndi.

11. Oqillarga shafqat va mehribonchilik bilan muomalada bo'lib, so'ngra tavoze, odob bilan yordam qilinglar.

Ushbu gapda qaysi gap bo'lak(lar)i uyushib kelgan?

- A) aniqlovchi va hol
B) ega va to'ldiruvchi
C) faqat hol
D) ega va aniqlovchi

12. Nisbiy so'zlar qatnashgan ergashgan qo'shma gap berilgan javobni aniqlang.

A) Bilingki, jim turib salomat bo'lish gapirib malomatga qolishdan afzal.

B) Yozuvchining mahorati shundaki, butun bahorni atigi chigitdek keladigan g'o'ra ichiga qamab bera biladi.

- C) Shuni bilingki, kengga keng, torga tor dunyo.
D) Sen birodaringni qanchalik yaxshi ko'rsang, Tangri ham seni shunchalik yaxshi ko'radi.

13. Qaysi gapda vergulning ishlatilishi bilan bog'liq xatolik mavjud?

A) El, yurt ravnaqi uchun kamarbasta bo'ladigan o'qituvchi, shifokor, muhandis, quruvchi, tabiatshunos ham zarur.

B) Ertaga shubhasiz, kishilarga nafi tegadigan shifokor, me'mor yoki el tanigan olim bo'lasiz.

C) Axir, inson ulug'vor ishlarni qilishdek ko'nikma va bilimiga o'z-o'zidan ega bo'lib qolmaydi-ku?!

D) Siz ezuq maqsadda yo'lga chog'lanyapsizmi, sira ikkilanmang.

14. Ayni kunda UNECKOning Bosh assambleyasi Parij shahrida joylashgan va uning a'zolari soni 195 davlatdan iborat.

Ushbu gapdagi ajratib ko'rsatilgan o'zlashma so'zning muqobilini belgilang.

- A) yig'ilish B) nizom
C) hokimiyat D) vakolatli guruh

15. Qaysi gapda “korruptsiya” so'zini ifodalovchi tasviriy ifoda qatnashgan?

A) Bugun raqamli iqtisodiyotga o'tish jarayonining tezlashishi natijasida taraqqiyot kushandasining payi qirilmogda.

B) Yoshlarning halol va haromni farqlab olishlari, shubhasiz, jamiyatga tushgan qurtlar olamining kamayishiga olib keladi.

C) Barcha yomonliklar kaliti va odam umrining kushandasi – “oq ajal”ga ruju qo'yish qanchadan qancha oilalarning buzilib, farzandlarning yetim qolishiga sababchi bo'ladi.

D) Harom ishlar esa illatdir, ular hayotning oxir-oqibat xarob qiladi.

Ushbu test topshiriqlari va savollari amaldagi 5–11-sinf ona tili darsligi asosida tuzildi.

Dildor NURMUHAMMEDOVA,
Termiz shahridagi 23-maktab o'qituvchisi

MATEMATIKA


16. Matoning narxi 10% ga pasaytirildi. Ma'lum vaqtdan so'ng yana 20% ga pasaydi. Narx jami necha % pasaydi?

- A) 30 % B) 32 %
C) 35,6 % D) 28 %

17. $\frac{3}{4} + \frac{2}{3}$ yig'indini hisoblang.

- A) $\frac{5}{3}$ B) $\frac{5}{3}$ C) $\frac{3}{7}$ D) $\frac{12}{13}$

18. Ushbu shakllar uchun to'g'ri munosabatni aniqlang.



- A) 1-kub, 2-silindr, 3-konus
B) 1-silindr, 2-kub, 3-konus
C) 1-silindr, 2-konus, 3-kub
D) 1-konus, 2-silindr, 3-kub

19. Natural sonlar uchun quyida keltirilgan mulohazalardan qaysi biri noto'g'ri?

- A) 2 hamda 3 ga bo'lingan son 6 ga ham bo'linadi.
B) Raqamlarining yig'indisi 3 ga bo'lingan juft son 6 ga ham bo'linadi.
C) Oxiri 3 bilan tugaydigan sonlar tub sonlardir.
D) 4 va 9 ga bo'linadigan son 36 ga ham bo'linadi.

20. Ishchining oylik maoshi ketma-ket ikki marta bir xil foizga oshirilgandan so'ng dastlabki maoshidan 69 % ga oshgan bo'lsa, maosh har gal necha foizga oshirilgan?

- A) 33 B) 30 C) 34,5 D) 44

21. Hoshimjon bitta ikki xonali sonni ikkinchisidan ayirdi, keyin esa ikkita katakni bo'yab qo'ydi. Bo'yalgan kataklardagi sonlar ko'paytmasining ikkilanganini toping.

$$3 - 2 = 25$$

- A) 30 B) 80 C) 40 D) 28

22. 7 dan 32 gacha bo'lgan natural sonlar ko'paytmasi 3 ning qanday eng katta darajasiga qoldiqsiz bo'linadi?

- A) 12 B) 11 C) 13 D) 14

23. Velosipedchi 12 km yo'l yurdi. Bu butun yo'lning 6 %ini tashkil etadi. Velosipedchi yana necha km yo'l yurishi kerak?

- A) 120 B) 200 C) 100 D) 144

24. Yozuvda 5 raqami faqat bitta bo'lgan nechta uch xonali son bor?

- A) 225 B) 123 C) 729 D) 243

25. Hisoblang: 2 soat 45 minut + 3 soat 35 minut

- A) 6 soat 20 minut B) 5 soat 70 minut
C) 920 minut D) 6 soat

$$26. \frac{1}{50} + \frac{1}{150} + \frac{1}{300} + \frac{1}{500} + \frac{1}{750} + \frac{1}{1050} = ?$$

- A) $\frac{7}{145}$ B) $\frac{5}{135}$ C) $\frac{6}{145}$ D) $\frac{6}{175}$

27. Ikki do'st maktabga borish uchun bir joydan yo'lga chiqdi. Birinchisining qadami uzunligi ikkinchisidan 20 % qisqa, lekin 20 % tezroq qadam tashlaydi. Qaysi biri oldinroq maktabga boradi?

- A) ikkinchisi B) birinchisi
C) ikkalasi bir vaqtda D) masofaga bog'liq

28. 567...727374 soni necha xonali son?

- A) 181 B) 153 C) 133 D) 135

29. EKUB(1,2,3,4,...99,100)=?

- A) 1 B) 156 C) 100! D) 1092

30. Humoyun bir son o'yladi. Agar unga 3 ni qo'shib, hosil bo'lgan yig'indini 3 ga ko'paytirsan, natijadan 5 ni ayirsa 31 hosil bo'ladi. Humoyun qanday son o'ylagan?

- A) 9 B) 6 C) 12 D) 10

Keyingi sonda oldingi mavzularni takrorlashga oid testlar beriladi, bunda testlar 5–8-sinf materiallari bo'yicha tuziladi.

Hamza XUDOYBERDIYEV,
G'ijuvon tumanidagi 32-maktab o'qituvchisi

O'ZBEKISTON TARIXI

31. Dastlabki turar joylar qaysi davrda qurilgan?

- A) neolit B) so'nggi paleolit
C) eneolit D) mezolit

32. Quyidagi qaysi davlat hududidan Buyuk Ipak yo'lining shimoliy tarmog'i o'tgan edi?

"Ma'rifat" repetitori

Majburiy fanlar asosida tuzilgan, mavzulashtirilgan testlarning 7-varianti

- A) Qang' B) Kushon
C) Davan D) Yunon-Baqtriya

33. Quyidagi qaysi shaxs turklarning g'arbiga tomon yurishiga boshchilik qilgan?

- A) Bumin B) Qutayba
C) To'ng Yabg'u D) Istami

34. Amir Temur o'z davlati poytaxti Samarqand atrofida qad ko'targan bir qancha yangi qishloqlarni nima uchun Sharqning mashhur shaharlari nomlari bilan atadi?

- A) Chunki yangi qishloqlar u yerdan kelgan me'morlar tomonidan qurilgan edi
B) Chunki yangi qishloqlar o'sha mashhur shaharlardan ham chiroyliroq, ko'rkamroq edi
C) Chunki Samarqand kattaligi, go'zalligi hamda tevarak-atrofning obod etilganligi jihatidan dunyodagi eng yirik shaharlardan ham ustunroq turmoqchi lozim edi
D) Chunki bu qishloqlarga o'sha shaharlardan keltirilgan aholi joylashtirilgan edi

35. "Hayotnoma" asarining muallifini aniqlang.

- A) Najmiddin Kubro
B) Ahmad Yassaviy
C) Ahmad Yugnakiy
D) Bahouddin Naqshband

36. Jaloliddin Manguberdini "butun musulmonlarning sultoni" deya e'tirof etgan shaxsni toping.

- A) Chingizxon
B) Taynol no'yon
C) Shamsiddin Eltutmish
D) Nosir

37. Muhammad Shayboniy nima uchun Mo'varounnahr, Xuroson temuriyodalari hamda Mo'g'uliston hukmdorlariga ichki raqiblariga qarshi kurashda yordam ko'rsata boshlaydi?

- A) O'zbek ulusini tiklashda ulardan yordam olishga umid qilayotganligi sababli
B) o'z yollanma qo'shinini saqlab turish uchun sarflanayotgan katta mablag' ulardan kelayotganligi sababli.

- C) Temuriylar davlati va Mog'ulistonda nufuzli siyosiy kuchga aylanishni xohlayotganligi sababli
D) ular orasida nifoqning kuchayishi Shayboniyxon-ga qo'l kelayotganligi sababli

38. 1700-yilda yashirincha Pyotr I huzuriga elchi yuborib, undan o'ziga tobe bo'lgan butun xalq bilan birga Rossiya qaramog'iga qabul qilishini so'ragan Xiva hukmdori kim edi?

- A) Elbarsxon B) Shohniyoz
C) Olloqulixon D) Sherg'oziyxon

39. Kimning hukmronligi davrida Qo'qon xonligi o'zining Xitoyga qaram ekanligini tan olgan?

- A) Norbo'tabiy B) Olimxon
C) Madalixon D) Erdonabiy

40. XIX asrda "dorukash" deb kimlarga aytilgan?

- A) dori-darmon tayyorlovchi va sotuvchilarga
B) porox tayyorlovchilarga
C) sharob savdosi bilan shug'ullanuvchi savdogarlarga
D) cho'yandan asboblari quyuvchi ustalarga

41. Rossiya imperiyasi tomonidan O'rta Osiyoni bosib olishning ikkinchi bosqichi qaysi yillarga to'g'ri keladi?

- A) 1847-1865-yy. B) 1865-1868-yy.
C) 1873-1879-yy. D) 1880-1885-yy.

42. Vose qo'zg'oloni(1885)ning asosiy sababi nima edi?

- A) harbiylikdan bosh tortgan aholiga nisbatan ikki baravar "qozon puli" solig'ining joriy etilishi
B) aholining majburiy hasharlarga jalb qilinishidagi adolatsizlik
C) o'tib ketgan kamhosiylar yillar uchun ham soliq talab qilinishi
D) sudlov ishlaridagi poraxo'rlik va suiiste'molliklar

43. Kim boshchiligidagi ekspeditsiya Ulug'bek rasadxonasi qoldiqlarini topishga muvaffaq bo'lgan?

- A) Bartold B) Tolstov
C) Volter D) Vyatkin

44. 1930-yillar qatag'oni qurboni bo'lgan quyidagi qaysi vatandoshimiz O'zSSR Maorif xalq komissari lavozimida faoliyat ko'rsatgan edi?

- A) Rahim Inog'omov
B) Sa'dulla Qosimov
C) Mirkomil Mirsharopov
D) Shamsutdin Badriddinov

45. Andijon viloyati Asaka shahrida Markaziy Osiyo hududidagi birinchi avtomobil zavodi nechanchi yilda ishga tushirilgan?

- A) 1994-yilda B) 1995-yilda
C) 1996-yilda D) 1997-yilda

ONA TILI

S	1	2	3	4	5	6	7	8	9	10	11	12	13	14	15
J	C	A	D	B	A	C	D	B	A	B	C	D	B	A	A

MATEMATIKA

16	17	18	19	20	21	22	23	24	25	26	27	28	29	30
D	A	B	C	B	B	A	B	A	A	D	A	D	A	A

O'ZBEKISTON TARIXI

31	32	33	34	35	36	37	38	39	40	41	42	43	44	45
B	A	D	C	D	C	B	B	D	B	B	C	D	A	C

Bir she'r tahlili

"Toshlarni sev, yuraging bo'lsa..."

Bugun adabiyotimizga qalbida haqiqat olovi alanga bo'lib yonayotgan, uni she'rlari marjondek tizayotgan Jontemir, Xurshid Abdurashid, Muhammad Siddiq kabi iste'dodlar kirib kelmoqda. Ular dunyoga yangicha qarash ila boqishadi va she'riyatga ham ajib ruh beruvchi satrlar taqdim etishmoqda.

She'r – ma'sum go'dak ko'zlariga o'xshaydi, yomonlikni bilmaydi. Yomonlik bor ko'ngilda esa she'r bo'lmaydi. U mo'jiza kabi. Shunday mo'jiza nasib etgan iqtidor egalardan yana biri, yosh shoir Suhrob Ziyodir. U biror she'rda hech bir so'zni bejiz keltirmaydi. She'rlarida ulkan falsafiy ruh mujassam. Shu sababmi, satrlari tilda beixtiyor yod aytiladi, qalbdan joy oladi. U "Ay, suygulim" va "Ko'ngil yelkani" she'riy to'plamlari muallifi.

Yaqinda chop etilgan "Ko'ngil yelkani" nomli to'plam she'riyat ixlosmandlari uchun ajabiy sovg'a bo'ldi. Kitob muqovasidayoq ko'zlarim shoir qalbidan yaralgan ikki satrga tushadi:

"Umrim – umrlarning ulkani, keldim.

Qalamim – ko'nglimning yelkani, keldim..."

Bilamizki, olis dengiz safarida kema harakatiga yelkan turkni bo'ladi. Shoir ham qalamini – yelkanga qiyos etadi. Ya'ni umr

deb atalmish dengizga chiqqan-u, qalam unga yo'lbo'shchi.

Kitobdan "Menda nima gunoh?", "Toshlarni sev", "Toshkent toshlarini", "Yil sotaman, olinglar" kabi bir-biridan go'zal she'rlar o'r in olgan bo'lib, muhtolaa qilgan kishini o'ylaganda cho'ndirishi, shubhasiz.

Xususan, "Toshlarni sev..." she'rda yangicha topilmalar bor:

**Toshlarni sev,
Ular hech qachon
Yumshoqman, deb aldamaydilar.
Yashirmaydi o'zliklarini,
Mayin kulib yormaydilar bosh.**

Ushbu bayt she'r tizimining erkin, ya'ni sarbast vaznida yozilgan bo'lib, unda har bir bandning so'nggi misralari o'zaro qo'iyalanib keladi. Shoir o'z ichki kechinmalari, chegara bilmas tuyg'ularini erkin tarzda marvariddek tizib chiqqan. Tashbehning go'zal namunalarini yaratgan. Ilk satrlarida umumiy sevmog' fe'li keng ma'noda kelgan, aynan ma'shuqaga nisbatan emas.

Har kim hayoti mobaynida turfa xil insonlarga duch keladi. Shunday insonlar borki, yuzlaridagi go'zallik ortida rivo yashirin bo'ladi. Shu sababmi, muallif toshlarni tasvirlash chog'i ba'zi insonlarga nisbatan "Yumshoq-

man, deb aldamaydilar" degan satrni keltiradi. Azaldan toshlarni insonga xos bo'lgan odamiylik sifatleri begona, mehr-muhabbatdan yiroq kimsalarga mengzab kelinadi. Bu kabi insonlarga nisbatan "tosh qalb, toshbag'ir" so'zlari qo'llaniladi.

Har bir bayt "toshlarni sev" degan misra bilan boshlanib, she'r oxrigacha davom etadi va anaforani vujudga keltirgan. Har misrada jonlantirishning ajabiy namunalarini uchratamiz. Toshga nisbatan "bezabon", "shirin so'z aytib o'ldirmoq" va shu kabi birikmalar berilgan. Lirik qahramon toshlarni kuzatar ekan, million yillik haqiqatlarni jimgina saqlashiga ishora qilib "toshlarni sev" moqni afzal biladi. Shoir qalbida kechgan tug'yonlar, o'y-fikrlari badiiy nutqda moddiylashgan, uning satrlari obrazli va hissiyotga yo'g'rilgan.

Ma'shuqaga aylangusi tosh.

Har satrda muallif toshga murojaat qiladi. Shunday sevkli, butun olam hayron qolsin, deydi. Toshni sevikli yor sifatida ko'rsatib, apostrofani hosil qilgan. Apostrofa – jonlantirishning bir ko'rinishi bo'lib, jonsiz narsa yoki hodisaga jonli narsa, hodisadek murojaat qilish yoxud yo'q shaxsga xuddi bordek qarash.

Ijodkor tabiat manzaralarini ko'rsatar ekan, ularni har doim inson manfaatlarini, o'ylari, orzu-intilishlari bilan bog'laydi. Xulosa qilib aytganda, bu kabi asarlar insonning ong-tafakurini, hislarini tarbiyalovchi bir vositadir.

**Toshlarni sev
Yuraging bo'lsa.**

Biz bilgan dunyo, insonlar tashqi tomondan go'zal, ularni ko'zlarimiz sevadi, lekin ularning ichki dunyosini anglaganingiz sari toshdek qattiq qalblarini his etamiz. She'rda keltirilgan tosh tabiatga oid jismga esa adabiyotda ramziy, ya'ni simvolik obraz sifatida qaraladi. Toshga insonga xos sifatlarining achchiq kinoya ostida berilishi allegoriyani hosil qilgan.

Bir so'z bilan aytganda, shoirning yutug'i shundaki, u "navbatchi" ya'ni, takrorlanuvchi mavzu va so'zlardan xoli asar yaratgan. Ustoz Mirzo Kenjabek aytganlaridek: "Har bir qalam sohibining o'ziga xosligini o'z ovozi – o'zi, so'zlardan foydalanish uslubi, muxtasar aytganda ijodiy tili belgilaydi".

Suhrob Ziyov ham adabiyotimizga o'zining yorqin va betakror satrlari bilan kirib kelmoqda.

Gu'nora SHERMATOVA,
Alisher Navoiy nomidagi
ToshDO'TAU talabasi

Katta yo'l chetida chamasi ellik yoshlardagi bo'ychan, yelkador kishi xayollar og'ushida ohista odimlar, yuz-ko'zi, ayniqsa, basavlat gavdasining bukchaygani uning katta tashvishi borligidan darak berar edi. Go'yoki shu tobd unga hech narsa pisand emasdek, boshqa yo'lovchilarga o'xshab qadamini chamalab ko'lmaklardan chetroqqa solmasdi. Nogahon yoniga qora rangli yengil mashina kelib to'xtadi. Haydovchi — norg'ul yigit old eshikni ochib yo'lovchiga yuzlandi:

— Assalomu alaykum, Maqsud aka, yo'l bo'lsin? O'tiring, manzilingizga yetkazib qo'yaman.

Maqsud aka alik olgach biroz egilib, mashina ichiga mo'raladi.

— Kechirasiz, men sizni tanimadim, o'g'lim.

— Mashinaga o'tiring, ustoz, so'ng o'zimni tanitaman. — deya javob berdi mashina egasi. "Ustoz" deganidan Maqsud aka tushundiki, bu yigit o'zi dars bergan talabalardan biri bo'lsa kerak.

— To'ychiyevman, eslaysizmi? — dedi haydovchi Maqsud aka o'rindiqqa joylashib olgach. — "Qish bor, yoz bor, topshiramizda imtihonni", deb chiqib ketgan talabangizman.

— Ha-a, esladim. Guruhingizdan ko'pchilikning ism-sharifi yodimda: Opa-singil Egamberdiyevlar, sardorlaringiz Vaxtadov bo'lardi... Lekin sizning ismingizni eslolmadim, uzr?

— Murodman. Qaysi tomonga yuramiz, ustoz?

— Ha, Murodjon, yashang, ana endi esladim. Kasalxonaga ketayapman, Sodiq Azimov ko'chasidagi, ilgari "Jukovskiy" deb nomlanardi. Katta qizim og'ir operatsiya bo'lgan...

— Ilohim, shifosini bersin. Nima bo'ldi?

— Ichagi buralib qolgan ekan. Operatsiya qilmay to'rt kun ushlab turishdi. Biz ham beparvo yuraveribmiz. Nihoyat, to'rtinchi kuni operatsiya qilishdi, shunda ham bir qovushmagan jarroh operatsiya qildi, chamamda, qizim hamon oyoqqa turib ketmadi. Bir haftadan buyon jonlantirish bo'limida... Uchta bolasi bor, kuyovimiz xorijda xizmat safarida edi. Xullas, tong sahardan to yarim kechagacha er-xotin kasalxonadami. Bugun bir majburiyat bilan shu tomonlarga kelgandim, biroz ushlab qolgan joyim. Qayerda ishlaydiz, Murodjon?

— "Ikar" stansiyasida, bu yerdan ko'pam uzoq emas. O'qishni bitirganimdan beri shu yerdaman. Avvaliga oddiyoq lavozimda ishladim. Bir yildan beri stansiya boshqaryapman.

— Vaxtadov hozir qayerda? U ham Toshkentda ishlayaptimi?

— Yo'q, Buxoroga ketgan. Hozir Kogon stansiyasini boshqaryapti.

— Yaxshi, barakalla. Shu yerda to'xtatib qo'yaverdi. Rahmat! Qani, qo'lingizni bering. "Ikar" stansiyasi boshlig'ining qo'lini siqqanman, deb eslab yuraman. Yaxshi, yana ko'rishib qolmasiz, kursdoshlaringizga salomimni yetkazing...

— Rahmat, ustoz! Albatta, yana ko'rishamiz, qizingiz tuzalib ketsin!

Maqsud aka shoshganicha kirib ketdi. Qora rangli mashina ortga burilib, kelgan yo'lga qaytdi. Shu kuni kechga tomon kasalxonaning uchinchi qavatidagi jonlantirish bo'limi eshigi oldida meva-cheva to'la xalta ko'targan Murod hozir bo'ldi. Uzun yo'lakda ham, o'rindiqlarda ham Maqsud aka ko'rinmasdi. Bir chetdagi kurdida sochlariga og' oralanagan, qo'llari sezilar-sezilmaz titrayotgan ayol pichirlab duo o'qib o'tirar, tez-tez jonlantirish xonasining darchasiga yaqin borib ichkariga qulqul solib turar, so'ng yana joyiga qaytdi. Ayol dam-badam beixtiyor yosh quyilayotgan ko'zlariga ro'molchasini bosib qo'yar, boshini ko'tarmadan betinim duoda edi. U Murodning shu yerda turganini payqamadi ham...

Murod qo'l soatiga bir qarab olib, kiraverishdagi o'rindiqqa o'tirdi. "Biroz

kutay-chi, zora Maqsud aka kelib qolsa. Bo'lmasa, shu ayoldan yoki biror hamshiradan so'rarman", deya o'ylanib turganida yo'lak boshida Maqsud aka ko'rindi.

U ham Murodni payqamay, to'g'ri yig'lab o'tirgan ayol tomon o'tib ketdi.

— Maqsudaxon, mana, dorilarni keltirdim, ichkaridan xabar bormi?

Ayol "yo'q" degandek bosh chayqab qo'ydi, dorili xaltani olib jonlantirish bo'limi eshigidagi darchani ohista taqillatdi. Darcha qiya ochildi, hamshira qiz xaltani oldi-yu, darchani yana yopib qo'ydi. Er-xotin o'rindiqqa qaytib o'tirishdi. Shundagina Maqsud akaning ko'zi Murodga tushib, bir necha soniya taajjublanib qoldi. Murod past ovozda "Assalomu alaykum", degach, darhol o'midan turib u tomon yurdi.

— E, Murodjon o'g'lim, sizni ham tashvishga solib qo'yibmiz-da! — Ikkovi qayta so'rashdilar. Murodning qo'lidagi xaltani ko'rib, Maqsud aka xijolat tordidi. — Nima qilib ovora bo'lib yuribsiz! Bugun tongdagi mehribonchiligingiz yetarli edi bizga...

S o'nggi Saboq

— Bilmasam, meva-cheva deganday... — Murodjon ham biroz o'ng'aysizlandi. — Ertalab sizga telefon raqamimni qoldirmay ketib qolibman. Ham telefon raqamimni aytay, ham bir hol-ahvol so'rab o'tay degandim.

— Oqibatingiz uchun rahmat, baraka toping. Qizimiz meva-cheva yeyish u yoqda tursin, hatto bir qultum suvni ham yutolmaydigan ahvolda. Tomiridan quvvat beradigan dorilarni yuborib turishibdi, xolos. Biroz oldin qaysidir dori nojo'ya ta'sir qilibdi, shekilli, hushini yo'qotib qaltiroq tutib qolgan ekan. Zudlik bilan boshqa dorini buyurishdi. Qidirib to vokzalga cha pyoda yugurib bordim. Yo'l-yo'lakay o'ntacha dorixona bor, birmabir kirib chiqarman, deb taksi ushlamadim, lekin topilmadi. Oxiri bir mashinani kira qilib, vokzal atrofidagi dorixonalariga bosh suqib, so'rab ketaverdim. Pastqamgina bir ko'chadagi kichkina dorixonadan topildi. Qaytishda shopir bola yo'lni yaqin qilaman deb ichki ko'chalardan haydagandi, kasalxonaga yaqin qolganida beton to'siqqa duch keldik. Kira haqini to'lay, deb cho'ntak kavlasam, shopir: "Pul kerak emas, yuguring, aka, tezroq yuguring", dedi. Qo'linga ilinganini mashina o'rindig'iga tashlaganicha yugurib ketdim. Shoshib kelganimdan sizni payqamay qolibman.

— Xijolat bo'lmang, ustoz. Hozir sizlarga osonmas. Kechqurun sizlarni olib ketgani kelaman. Uzr, hozir shoshib turgandim. Men kelguncha ketib qolmang, iltimos.

Murod ustoz bilan xayrlashib, qo'lini ko'ksiga qo'yib Maqsuda opadan ham ko'ngil so'ragan bo'ldi-da, tashqariga shoshildi. Kech soat yettilarda jonlantirish bo'limining mudiri — xorazmlik Xudonazar ismli shifokor yigit Maqsud akani yo'lakning xoliroq joyiga chaqirib:

— Aka, ko'rib turibsiz, biz qo'ldan kelganini qilyapmiz, lekin hech iloji bo'lmayapti... Mana, bugun operatsiyaning oltinchi kuni ham oxirlayotir... Ichaklar ishlash ketmadi, ehtimol, chiriq boshlagandir. Bunday holatda ichak yorilib, zahar bir zumda butun organizmga tarqab ketishi mumkin. Umid ham tugayapti. Balki, qizingizning bir necha soatlik umri qolgandir, bu yog'i Xudoning ishi. Bu yerda yurganingiz bilan foydasi yo'q, uyga borib u-bu

tayyorgarlikni qila bering. — dedi-da yana ichkariga kirib ketdi...

Sho'rlik ota bu so'zlarni eshitgach ichiga otash o'rlob, ko'zlaridan uchqun sachragudek bir holat sezdi o'zida. Bo'g'ziga faryod tiqildi, dod solgisi keldi-yu, ayoliga ko'zi tushib hushini yig'di. Bu gaplardan xabari bo'lmagan xotining oldiga keldi-da, hazin tovush bilan:

— Men uyga ketyapman, boshim qattiq og'riyapti. O'zingiz bir amallab yetib olasiz, — deya kasalxonadan chiqdi...

Shu tobd Maqsud aka nafaqat kasalxonadan, balki shu shahri azimdan, hatto kurrayi zamindan ham chiqib ketishni istardi. Ota sho'rlik jigabandining g'amida dunyolarga sig'may qolgandim...

...Uyiga qanday yetib keldi — o'zi bilmaydi. Uyga kirib borgach bildiki, hali o'g'liyam, kenja qiziyam kelmagan. Olloha yolvorishdan o'zga chora yo'q! Boshini devorlarga urib nola qila boshladi: "Jon kerak bo'lsa, mana, mening jonimni olaver, ey Parvardigor, qizimning

yosh joniga rahming kelsin. Uch nuradisingan rahmini o'zing yegin, Xudoyim...". Maqsud aka hush-behush bo'lib turganida uy telefoni jiringladi. Yuragi o'ynab ketdi, ko'z oldida qizi gavalandi, anavi shifokorning so'zlari... "Ey Xudo, o'zing asra!", deya pichirlab, telefon go'shagini qulog'iga tutdi, bazo'r "Eshitaman", deyoldi. "Quda buva, yaxshimisizlar? Yaxshiyaman, uyda ekansiz. Qizingiz Shoistaxon yaxshi bo'lib qoldimi? Men qo'ng'iroq qilayotganim — Mohiraxon nabirangiz tog'oradagi qaynoq suvga chap yonboshi bilan ag'anab tushibdi, singlisi Hilola itarib yuborgan ekan. Hozir dadam bilan oyim keliningiz va nabiralaringizni Ko'kcha tarafidagi kuyganlarni davolovchi kasalxonaga olib ketishgan. Shuni sizga bildirib qo'yay degandim..." Bu xabar Maqsud akani tamoman dovdiratib qo'ydi. Na biron so'zga, na xayr-xo'shga tili kelishmadi. Yer-u osmon chirpib bo'ldi go'yo. Telefon go'shagini joyiga qo'ydi, nimadir qidirandek bo'lib qo'shni xonaga chiqdi-yu, boshini changallaganicha o'sha yerdagi divanga o'tirib qoldi... Oradan qancha vaqt o'tdi, nimalarni o'yladi, yig'ladi, dod soldimi — yodida yo'q! Bir zamon qarasa, tepasida kenja qizi Hulkar turibdi.

— Qizim, qachon kelding?

— Boyadan beri yoningizdaman, dada-jon! Nima bo'ldi o'zi?

— Opangdan xabar olib kelgandirsan? Oying o'sha yerda qoldimi? Soat n'ndan oshibdi. Kech bo'lsa ham dugonangga qo'ng'iroq qilsang. Zora biror yordami tegsa.

Hulkar telefonda gaplashib bo'lgach, yana otasining yoniga kelib o'tirdi. Qiz bechora otasining holidan bexabar uni savollarga ko'mib tashladi:

— Dada, ko'zlaringiz qizarib ketibdi, yig'ladingizmi? Meni qo'rqitmag. Kelganida ko'cha eshik lang ochib, chiroqlarni ham yoqmabsiz. Salom bersam, indamay o'tiraverdingiz. Hammadan ham sizga og'ir bo'lyapti, bilaman, lekin o'zingizni asramasangiz bo'lmaydi. Bugun kasalxonadan vaqtliroq qaytdingizmi? Charchadingizmi, choy damlab beraymi?

— Choyni keyin icharmiz, qizalog'im. Dugonang bilan gaplasha oldingmi?

— Undan yordam so'rash mening ham xayolimga kelgandi. Telefon topa olmadim-da, yo'l-yo'lakay qo'ng'iroq qilgan bo'lardim. Dugonam hozir uyida yo'q

ekan, oyisi bilan gaplashdim, "Kelib qolsa, aytaman, qo'ng'irog'ini kut", dedi. Zora, qo'ng'iroq qilib qolsa. Doktorlar nima deyishyapti, opamning ahvoli yomonlashdimi? Menga to'g'risini aytavering...

— Oh, qizginam, Xudo saqlasin-u, opangga bir gap bo'lsa, ertaga oltin kosadan oltin qoshiqda taom yesak ham tatimaydi. Shifokorlar yaxshi gap aytishmayapti, har narsaga tayyor turinglar, deyishdi. U yerda bo'lsam, onangga bildirib qo'yaman, deb kasalxonadan ketib qoldim.

Shu payt yana telefon jiringladi. Hulkar narigi xonaga o'tib, telefonda ancha gaplashib keldi-da, otasiga taskin berdi:

— Dugonam bilan gaplashdim, bor imkonimni ishga solaman, debi. Endi qo'ng'irog'ini kutamiz, dadajon. Hammasi yaxshi bo'ladi, kuyinmang. Akam nega shu paytgacha kelmadi ekan?

Maqsud aka hamon bir nuqtaga tikilganicha o'tirardi, qizining savoliga darhol javob bermadi. Chuqur xo'srinib olgach, xuddi o'ziga-o'zi gapirayotgandek dedi:

— Akang o'zi bilan o'zi ovora bo'lib qoldi. Mohira jiyaning qaynoq suvga tushib kuyib qolibdi, qudalarimiz kasalxonaga olib ketishibdi, boya qaynog'asining xotini qo'ng'iroq qilgan edi. Akang ham o'sha yerda bo'lsa kerak. Bilmadim, bugun bu yerda bosh suqishga ulgurarmikan? Uyi ham egasiz qolgandir. Tavba, bu yoqda opang, bu yoqda akangning qizalog'i... Kuyganini eshitdim-u, ammo uydun qo'zg'ala olmay, kelishingni kutib o'tirgandim... Bugun tongda Murod ismli bir shogirdimni uchratib qoldim, uni Xudo yetkazdi bizga. bo'lsa ham sizlarni olib ketishga kelamiz, degan edi. Oying bu gapdan xabardor, ketib qolmaydi.

Telefon tag'in sado berdi. Hulkar gaplashib chiqib, bor gapni tez-tez so'zlab berdi:

— Dugonam oilaviy shifokori bo'lgan mashhur professorga bizning vaziyatni tushuntirib, opamni ko'rikdan o'tkazishini so'rabdi. Hozirgina unga kasalxonadan qo'ng'iroq qilishibdi. Aytishicha, o'sha professor yana bitta professor bilan kasalxonaga yetib borishibdi. Opamni ertaga qaytadan operatsiya qilishar ekan. Qani, oyim kelsinlar-chi, boshqa gaplarni ham bilib olamiz. Dadajon, unda men ertaga darsga bormasammi?

— Yo'q, qizim, darsingdan qolma. Yaxshi o'qiganing uchun shu o'qishga kirding, shunday dugonang bor. Puxta bilim olishing kerak. Axir shunday dargohda o'qiyapsan. Bizlar erta bilan opangdan birrov xabar olamiz-da, unda Mohirani ko'rgan o'tib, operatsiya paytigacha kasalxonaga qaytamiz. Zora, ertangi kunimiz xayrli bo'lsa...

Maqsud aka chuqur xo'srinib, o'yg'a toldi. "Endi nima qilib bo'lsa ham pul topish kerak. Borini sarflab bo'ldik. Ertangi operatsiya ham xarajatsiz bo'lmasa, yana dori-darmon degandek. Bunday paytda cho'ntaging sal qappayib tursa, odamga ancha mador bo'larkan. Qudalardan najot yo'q, "miq" etishmayotir..."

Hulkar — ziyrak qiz. Otasi shu tobdan nimaning tashvishini qilayotganini sezib turardi. U "dada-jon...", dedi-yu, gapni nimaning boshlashini bilmay qoldi. Maqsud aka boshini ko'tarib qiziga qarasa-da, nigohidan hamon o'z o'yi bilan bandligi sezilardi:

— Dadajon, bir narsani o'ylab qoldim. Aniqlik, hozir bizga pul kerak bo'ladi. Shunga... — Hulkar fikrini qanday aytishni bilmay, to'g'rirog'i, mos so'z topolmay jim bo'lib qoldi. Maqsud aka "Biron jo'yali taklifing bo'lsa, ayta qol" degan ma'noda qarab turganini ko'rib, bir nafasda aytadiganini aytib oldi: — Shunga... anavi amaldor qarindoshimiz bor-ku, yaqinda minist bo'ldi, shekilli, o'sha kishidan qarz so'rab tursangiz qanday bo'larkan?

Xasanova Dilnoza Axrorovnaning 14.00.02 — *Morfologiya ixtisosligi bo'yicha "Taloq va timusning me'yorda hamda gen-modifikatsiyalangan mahsulot ta'siridagi tajribada morfologik jihatlar"* mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi **Abu Ali ibn Sino** nomidagi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.93.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 2-dekabr kuni soat 12:30 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50, 223-17-53; e-mail: buhmi@mail.ru

Karimov Gafur Umurkulovichning 05.09.05 — *Qurilish materiallari va buyumlari ixtisosligi bo'yicha "Kam suv talabchan bog'lovchilar va ular asosidagi ko'pik betonlar"* mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent arxitektura-qurilish instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.26/30.12.2019. T.11.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100011, Toshkent shahri, Abdulla Qodiriy ko'chasi, 7-"b" uy. TAQI Arxitektura fakulteti.
Tel/faks: (71) 241-10-84, 241-80-00; e-mail: devon@taqi.uz

Djurayev Sobir Mirzayevichning 05.10.02 — *Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi ixtisosligi bo'yicha "Mahalliy xomashyolar asosida yong'in-ga xavfsiz issiqlik izolyatsiyalovchi materiallar"* mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.40/30.12.2020. T.129.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100102, Toshkent shahri, Yangiyo'lov tumani, Do'stlik ko'chasi, 5-uy.
Tel/faks: (71) 258-35-33; e-mail: info@akademiya.fv.uz

Raupov Anvarjon Razoqovichning 05.10.02 — *Favqulodda holatlarda xavfsizlik. Yong'in, sanoat, yadro va radiatsiya xavfsizligi ixtisosligi bo'yicha "Fosfor guruhi oligomerlar asosida to'qimachilik materiallarining olovbardoshligini oshirish texnologiyasini ishlab chiqish"* mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Respublikasi favqulodda vaziyatlar vazirligi akademiyasi huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.40/30.12.2020. T.129.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-noyabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100102, Toshkent shahri, Yangiyo'lov tumani, Do'stlik ko'chasi, 5-uy.
Tel/faks: (71) 258-35-33; e-mail: info@akademiya.fv.uz

Qasimov Arslanbek Atabayevichning 14.00.13 — *Nevrologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Posttravmatik epilepsiyaning somatik kasalliklar hamrohligi fondidagi diagnostika va klinikasining xususiyatlari"* mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.04/30.12.2020. Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 26-noyabr kuni soat 14:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (65) 223-00-50; e-mail: buhme@mail.ru

Sadrixodjayeva Azizaning 14.00.09 — *Pediatriya ixtisosligi bo'yicha "Qandil diabetning 1 turi bilan og'riq bolalarda yurak-qon tomir buzilishlarini prognozlash va ularni korrektsiyalash (tibbiyot fanlari)"* mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 25-noyabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Raxmatullayeva Sevara Nodirbekovnaning 14.00.11 — *Dermatologiya va venerologiya ixtisosligi bo'yicha "Vulvaning distrofik kasalliklarining klinik-laborator xususiyatlari va davolash (tibbiyot fanlari)"* mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent pediatriya tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.29.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 25-noyabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100164, Toshkent shahri, Yunusobod tumani, Bog'ishamol ko'chasi, 223-uy.
Tel/faks: (71) 262-33-14; e-mail: tashpmi@gmail.com

Abdullayeva Muazzamxon Ilcomidinovnaning 14.00.13 — *Nevrologiya ixtisosligi bo'yicha "Bolalarda idiopatik epilepsiyaning klinik-immunologik xususiyatlari (tibbiyot fanlari)"* mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat tibbiyot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.04/30.12.2020. Tib.93.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 26-noyabr kuni soat 12:30 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Alisher Navoiy shohko'chasi, 1-uy.
Tel/faks: (0365) 223-00-50; e-mail: buhme@mail.ru

Abduraximov Umurbek Kurbanbayevichning 03.00.07 — *O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi ixtisosligi bo'yicha "Xorazm viloyati sharoitida rastoropsha — Silybum marianum L. navrlarining fiziologik-biokimyoviy xususiyatlari va urug'larining kimyoviy tarkibini qiyosiy o'rganish"* mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03/30.12.2019. B.72.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-dekabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Tel/faks: (65) 221-29-14, 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Voxidov Akmal Ulashevichning 05.05.06 — *Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari ixtisosligi bo'yicha "Yassi quyosh suv isitgich kollektorlari panellarida kechadigan issiqlik va gidravlik jarayonlar"* mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Qarshi muhandislik-iqtisodiy instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03/30.09.2020. T.111.03 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 4-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 180100, Qarshi shahri, Mustaqillik ko'chasi, 225-uy.
Tel/faks: (75) 224-02-89, 224-13-95; e-mail: qmii@qmii.uz

Yunusov Oybek Xabibullayevichning 03.00.07 — *O'simliklar fiziologiyasi va biokimyosi ixtisosligi bo'yicha "Jo'xori (Sorghum vulgare (PERS.)) va Afrika ko'ng'i (Pennisetum glaucom (L.) R.Br.) turli nav namunalarining sho'rangan tuproq sharoitidagi fiziologik va biokimyoviy xususiyatlari"* mavzusidagi (biologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Buxoro davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi Ph.D.03/30.12.2019. B.72.02 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 7-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 200118, Buxoro shahri, Muhammad Iqbol ko'chasi, 11-uy.
Tel/faks: (65) 221-29-14, 221-27-57; e-mail: buxdu_rektor@buxdu.uz

Fayziyev Jahongir Bahromovichning 02.00.14 — *Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi (texnika fanlari) bo'yicha "Tarkibida metall saqlovchi yangi fultsianin pigmentlarini olish texnologiyasini ishlab chiqish"* mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019. T.87.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-noyabr kuni soat 11:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111116, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Sho'ro bozor" mahallasi.
Tel/faks: (95) 144-67-83; e-mail: ooo_tniix@mail.ru

Raxmatov Shokirjon Botirovichning 02.00.14 — *Organik moddalar va ular asosidagi materiallar texnologiyasi ixtisosligi (texnika fanlari) bo'yicha "Metanni katalitik oksikondensatlab etilen olish va uning texnologiyasi"* mavzusidagi (texnika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent kimyo-texnologiya ilmiy-tadqiqot instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.16/30.12.2019. T.87.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-noyabr kuni soat 09:00 dagi onlayn(masofaviy) majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111116, Toshkent viloyati, Toshkent tumani, "Sho'ro bozor" mahallasi.
Tel/faks: (95) 144-67-83; e-mail: ooo_tniix@mail.ru

Shadjalilov Sherzod Inogomovichning 13.00.04 — *Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Yuqori malakali futbolchilarning ish qobiliyati samaradorligini oshirish"* mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-noyabr kuni soat 10:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ijtimoiy binosi,
2-qavat, kichik majlislar zali.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsa@uzdjtsu.uz

Xamidjon Abdulaziz Usubjon o'g'lining 13.00.04 — *Jismoniy tarbiya va sport mashg'ulotlari nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo'yicha "Belbo'g'li kurash sport turiga bolalarni saralash tizimi va mazmunini takomillashtirish"* mavzusidagi (pedagogika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. Ped.28.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 30-noyabr kuni soat 12:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 111709, Toshkent viloyati, Chirchiq shahri, Sportchilar ko'chasi, 19-uy.
O'zbekiston davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti ijtimoiy binosi,
2-qavat, kichik majlislar zali.

Tel/faks: (70) 717-17-79, 717-27-27, 717-17-76; e-mail: uzdjtsa@uzdjtsu.uz

Asfandiyarov Ildar Maratovichning 01.03.01 — *Astronomiya ixtisosligi bo'yicha "Maydanak observatoriyasidagi kuzatish natijalari asosida gravitatsion-linlanuvchi tizimlarning kompleks tadqiqoti"* mavzusidagi (fizika-matematika fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Astronomiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.02/30.12.2019. FM.15.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 10-dekabr kuni soat 11:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100052, Toshkent shahri, Astronomiya ko'chasi, 33-uy.
Tel/faks: (71) 235-81-02, 234-48-67; e-mail: igor@astrin.uz

Kamolov Javlon Adxam o'g'lining 14.00.21 — *Stomatologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Toshga qarab bolalarda doimiy tishlarni yorib chiqishning o'ziga xos xususiyatlari"* mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 2-dekabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Musayev Shamshodbek Shuxratovichning 14.00.21 — *Stomatologiya (tibbiyot fanlari) ixtisosligi bo'yicha "Bolalar pastki jag'i sinishida jag'lar immobilizatsiya usullarini solishtirish baholash"* mavzusidagi (tibbiyot fanlari bo'yicha) falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent davlat stomatologiya instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Tib.59.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 2-dekabr kuni soat 13:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: Toshkent shahri, Yashnobod tumani, Maxtumquli ko'chasi, 103-uy.
Tel/faks: (71) 230-20-65, 230-47-99; e-mail: tdsi2016@mail.ru

Tilayeva Umida Mahmudjanovnaning 15.00.02 — *farmatsevtik kimyo va farmakognoziya ixtisosligi bo'yicha "Fenilglioksil kislotalarining kombinirlangan ta'sirli dori vositalari sifatini nazorat qilish va standartlashtirishni ishlab chiqishda metodologik yondashuv"* mavzusidagi (farmatsevtika fanlari bo'yicha) fan doktori (DSc) dissertatsiyasining himoyasi Toshkent farmatsevtika instituti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.04/30.12.2019. Far.32.01 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 3-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.

Manzil: 100015, Toshkent shahri, Mirobod tumani, Oybek ko'chasi, 45-uy.
Tel/faks: (71) 256-37-38, 256-45-04; e-mail: farmi@bcc.uz

Izoh: O'tkazilayotgan barcha himoyalar O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazning <http://himoya.bimm.uz> platformasi va ZOOM dasturi orqali onlayn (masofaviy) tarzda amalga oshiriladi.

Nurobod xizmat ko'rsatish kasb-hunar kolleji tomonidan Davlat attestatsiya komissiyasining 2018-yil 20-iyundagi bayonnomasiga binoan Nabiyev Shuhrat Isrofilovichga berilgan K5120632(qayd raqami 1036) raqamli diplom va uning ilovasi yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

Toshkent pediatriya tibbiyot instituti qoshidagi 2-son akademik litsey tomonidan Davlat imtihon komissiyasining 2015-yil 2-iyuldagi qaroriga binoan Eshmatova Shoiri Vali qiziga berilgan L № 256980 (ro'yxat raqami 117) raqamli DIPLOM va uning ilovasi yo'qolgani sababli

BEKOR QILINADI.

MUTOLAADA O'RNAK USTOZLAR

Yunusobod tumanida-gi 302-maktabning ahil pedagogik jamoasi ti-rishqoq va harakatchan-lik bilan mehnat qilish-moqda. Maktab rahbari Dilfuza Najimova 19 yil davomida mazkur mak-tabda o'quv-tarbiyaviy ishlar bo'yicha direktor o'rinbosari vazifasida faoliyat olib borgan. 5 yildan buyon maktab di-rektori.

Maktab quvvati 1100 nafar o'quvchi uchun mo'ljallangan bo'lib, hozir 2109 nafar o'quvchi tahsil olmoqda. 110 nafar oliy ma'lumotli o'qituvchilar ta'lim bermoqda. Pedagogik jamoa hozir-gacha ko'plab ko'rik-tanlov, sport musobaqalarida yetakchi o'rinlarni egallab kelmogda.

Maktabning aksariyat o'qituv-chilari o'z fani bo'yicha kuchli bilim va mahoratga ega. Bu esa pandemiya sharoitida yurtimizda vujudga kelgan karantin vaqti-da namoyon bo'ldi. Maktabning 5 nafar malakali o'qituvchisi – Mammuna Maripova, Dilnoza



Boynazarova, Farhod Tursun-po'latov, Gulmira Badalova, Mu-navvar Murodova onlayn maktab loyihasida faol ishtirok etishdi.

Ta'lim maskanida o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida mutola-madaniyati namunali shakl-langan. Har bir pedagog fani va kasbiga oid matbuot nashrlarini o'z vaqtida olib, o'qib chiqadi va pedagogik soatlarda dolzarb ma-qolalar muhokama qilinadi. Xu-susan, "Ma'rifat" gazetasi, "Bosh-lang'ich ta'lim" va "Mahoratli pedagog" kabi jurnallarning har

bir sonini o'qituvchilar qo'ldan qo'ymay o'qishadi. Ularda chop etilgan metodik tavsiyalar va yan-giliklar darslarda foydalanishda asqatadi.

Pedagoglar bu borada o'quv-chilarga ham o'rnak bo'lib kelish-moqda. Maktab kutubxonasi har doim bolalar nashrlari va badiiy ki-toblar istab va izlab kelgan o'quv-chilar bilan gavjum.

Mammuna MARIPOVA,
shu maktab direktorining
o'quv-tarbiya ishlari
bo'yicha o'rinbosari.

Burhon Rizoqulov olgan suratlar.

KAMOLIDDIN BEHZOD NOMIDAGI MILLIY RASSOMLIK VA DIZAYN INSTITUTI



KAFEDRALARI BO'YICHA QUYIDAGI LAVOZIMLARGA TANLOV E'LON QILADI:

- I. "Dastgohli rangtasvir" kafedrası:
katta o'qituvchi
- II. "Miniatura va kitob grafikasi" kafedrası:
katta o'qituvchi
- III. "Libos dizayni" kafedrası:
katta o'qituvchi
- IV. "Muzeysunoslik" kafedrası:
o'qituvchi
- V. "Ijtimoiy fanlar, pedagogika va kasbiy ta'lim"
kafedrası:
katta o'qituvchi

Tanlovda ishtirok etish uchun quyidagi
hujjatlar taqdim etilishi lozim:

- institut rektori nomiga ariza;
 - xodimlar shaxsiy varaqaasi;
 - oliy ma'lumoti, ilmiy darajasi, ilmiy unvoni haqida diplom va attestatlarning nusxasi;
 - mehnat daftarchasi nusxasi;
 - ilmiy va o'quv-metodik ishlari ro'yxati;
 - ijodiy ishlar ro'yxati, ijodiy ishlar fotoalbomi;
 - kataloqlar.
- Hujjatlar e'lon chiqqan kundan boshlab bir oy muddat ichida institut Kengashi kotibi tomonidan qabul qilinadi.

Manzil: Toshkent shahri, Mirobod tumani,
Mironshoh ko'chasi, 123-uy.
Murojaat uchun telefon raqami:
(71) 255-18-33, 255-98-39.

Nuraliyeva Dildora Mamurjonovnaning 19.00.05 — Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha "Oilaga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlarini takomillashtirish" mavzusidagi (psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019. P. 01.07 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 3-dekabr kuni soat 14:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona.
Tel/faks: (71) 246-52-74, 246-53-21; e-mail: nauka@nuu.uz

Shermatov Fayzullo Toshillayevichning 19.00.05 — Ijtimoiy psixologiya. Etnopsixologiya ixtisosligi bo'yicha "Bo'lajak ofitserlarda kasbiy zo'rqiqlar namoyon bo'lishining ijtimoiy-psixologik omillari" mavzusidagi (psixologiya fanlari bo'yicha) falsafa doktori(PhD) dissertatsiyasining himoyasi O'zbekiston Milliy universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi DSc.03/30.12.2019.P.01.07 raqamli ilmiy kengashning 2021-yil 3-dekabr kuni soat 15:00 dagi majlisida bo'lib o'tadi.
Manzil: 100174, Toshkent shahri, Universitet ko'chasi, 4-uy.
O'zbekiston Milliy universiteti, Ijtimoiy fanlar fakulteti binosi, 5-qavat, 511-xona. Tel/faks: (71) 246-52-74, 246-53-21; e-mail: nauka@nuu.uz

Endi **Payme** va **CLICK** orqali
to'lov qilib obuna bo'ling!

Qo'shimcha xizmat
to'lovlarisiz tahririyat bilan
to'g'ridan-to'g'ri
obuna shartnomasini
tuzing.



Marifat
Gazetalarimizga
2022-yil uchun obuna
davom etmoqda!

Gazetalarimizga
2022-yil uchun obuna
davom etmoqda!

facebook.com/marifat.uz
@marifat.uz
www.marifat.uz
(71) 233-50-55
(71) 233-99-15
(71) 233-42-92

Marifat

TA'SIS ETUVCHILAR:


O'zbekiston xalq ta'limi vazirligi,
O'zbekiston oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi,
O'zbekiston ta'lim va fan xodimlari kasaba
uyushmasi Respublika kengashi.

Bosh muharrir: Husan NISHONOV

Gazeta O'zbekiston Matbuot va axborot agentligida
2006-yil 22-dekabrda 0067-raqam bilan ro'yxatga olingan.
Indeks: 149, 150, V-4932, Tiraj 7218.
Hajmi 4 bosma taboq. Ofset usulida bosilgan,
qog'oz bichimi A-3. Bahosi sotuvda erkin narxda.

TELEFONLAR:

qabulxona – (71) 233-50-55;
kotihiyat – (71) 233-99-15;
reklama va marketing bo'limi –
(71) 233-42-92 (faks), (71) 233-56-00.



"Ma'rifat" dan
materiallarni ko'chirib
bosish tahririyat
ruxsati bilan amalga
oshirilishi shart.

Tahririyatga kelgan
qo'lyozmalar taqdir
qilinmaydi va maj-
lifa qaytarilmaydi.

MANZILIMIZ:

100083, Toshkent shahri,
Matbuotchilar ko'chasi, 32-uy.
Web-site: www.marifat.uz

Dizaynerlar: Malohat Toshova, Faxriddin Rahimov.
Nabatchi muharrir: Humoyun Quvondiqov.
Nabatchi: Faxriddin Rahimov.

Gazeta haftaning chorshanba kuni chiqadi.

"O'zbekiston" nashriyot-matbaa ijodiy uyida chop etiladi.
Korxona manzili: Toshkent shahri, Alisher Navoiy ko'chasi, 30-uy.